

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA’LIM YO‘NALISHI

“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

“SHAXS MA’NAVIY TARBIYASIDA GORIZONTAL VA
VERTIKAL YONDASHUV NISBATI ”

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etishva boshqarish”
kafedrasining ____ - sonli yig‘ilish
bayonnomasi

“ ____ ” 2014yil

Kafedra mudiri _____

X.Shodiev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy
faoliyat” ta’limyo‘nalishi IV-
kursbitiruvchisi

Turdiyev Jamoliddin
Abduvahobovich

Ilmiy raxbar: Sotsiologiya
fanlari doktori, professor
M.Bekmurodov

Toshkent-2014yil

MUNDARIJA

Kirish	1
I BOB Shaxs ma'naviy tarbiyasida gorizontal va vertikal munosabatlarni belgilovchi xususiyatlar.....	
1.1. Shaxs ma'naviy tarbiyasida gorizontal va vertikal yondashuv nazariyasi.....	3
1.2. O'zbekistonda gorizontal va vertikal yondoshuvlarning o'zaro qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari.....	7
II BOB Shaxs ma'naviyatini belgilashda ta'lim-tarbiyaning roli.....	
2.1. Shaxs ma'naviy tarbiyasida oila va maxallaning o'rni.....	13
2.2. Shaxs ma'naviyatida qadriyatlarning muhim ahamiyatga egaligi..	38
Xulosa.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, mamlakat o‘tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma’naviy qadriyatlar va an’analarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlatimiz rahbarining «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch - ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tibor qaratildi. Istiqlol yillarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Yuzlab muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari ommaviy muassasalar sifatida vatandoshlarimizga ma’naviy-ma’rifiy xizmat ko‘rsata boshladi. Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat markazi» tashkil etildi (1994) va uning viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi bo‘limlari ishga tushirildi. Markazga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi rahbarlik qila boshladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov istiqlolga erishilgan ilk davridayoq mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti uchun odamlararo maqsadlar mushtarakligi va harakatlar birligi juda zarurligini ta’kidlab “Endi inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o‘tish payti keldi”, deb aytgan fikrlarida chuqur ma’no – mazmun mujassamdir.

Tarbiya samaradorligiga erishishda vertikal hamda gorizontal yondoshuv xillari amaliyotda keng qo‘llaniladi. Tarbiyada vertikal yondoshuv deganda bu maqom, mavqe, lavozim, mulkka egalik farqiga ko‘ra munosabatlarni, rahbarning xodimga ta’siri, ular o‘rtasidagi masofa darajalari, shuningdek, katta yoshli odamlarning o‘z farzandlari, shogirdlari, hamkasb va hammahalla yoshlarga nisbatan ma’naviy ta’siri tushuniladi. Kattalarning yoshlarga vertikal tarzda ta’sir o‘tkazishi milliy ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirish, vorisiylik an’analarini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Kattalarning ibrat omili orqali tarbiyalash

tajribasi xalqimizning asriy an'analarining avlodlardan avlodlarga o'tkazilib, ularning hayotchanligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shaxs ma'naviy tarbiyasidagi gorizontal va vertikal munosabatlar tizimini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va sotsiologik tahlil etish maqsadida mavzuning dolzarbligini quyidagi jihatlar asosida ko'rsatishni lozim topdik.

Birinchidan, shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlar tarixan shakllangan bo'lib, ularga amal qilishni makro va mikro oilalarda o'rganish;

Ikkinchidan, o'zbek oilalaridagi farzandlar o'rtasidagi o'zaro turli yoshdagi farqlarga muvofiq, tarbiyaning turlicha darajada namoyon bo'lishi;

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganganligi. Shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlar dolzarb masala va tadqiqot ishi sifatida Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlarida, asarlarida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, jadidchilarimizdan A.Avloniyning asarlarida shaxs ma'naviy tarbiyasining pedagogik va didaktik masalalari yoritilgan. Xususan, xorij olimlari A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy asarlarida ham shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlar atroflicha yoritilgan.

O'zbekistonda olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar doirasida shaxs ma'naviy tarbiyasidagi vertikal va gorizontal munosabatlarni sotsiologik tahlil qilish ishlarini ko'proq sotsiologik olimlarimiz M.Bekmurodov, A.Umarov, K.Kalonov, A.Yunusov va boshqa olimlarimizning ijodida ko'rish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining metodini ko'zatuv, intervyu, ekspremental, anketa metodi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi metodologiyasini Sharq va G'arb mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarga doir qarashlari aks etgan asarlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikki bobda birlashgan to'rtta paragraf, xulosa qismi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

I BOB Shaxs ma'naviy tarbiyasida gorizontal va vertikal munosabatlarni belgilovchi xususiyatlar

1.1. Shaxs ma'naviy tarbiyasida gorizontal yondoshuv nazariyasi

Jamiyat tarixi mohiyat e'tiboriga ko'ra kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarixidan iboratdir. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrida tarkib topgan iqtisodiy siyosiy tuzum esa jamiyatni tashkil qilgan shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarni shakllantirgan va idora qilib kelgan. Shu sababli, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, maqsadi, manfaatlari, tuzum tomonidan unga berilgan erkinlik darajalari kabi masalalar o'ziga xos ijtimoiy muammolarni tashkil qiladi.¹

Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: Odamlar hayotda hamisha bir-birlariga bog'lanib yashashga moyil bo'ladilar. Ba'zilar, esa odamlar o'rtasida ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar yetkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda murosaga keladilar deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos bo'lgan hayvoniy aqidalardan biri ham mana shu noto'g'ri tasavvur va aldamchi aqidadir".

Abu Nasr Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda birgalashib, hamkorlikda yashashlari zarurligini, ana shunda o'zaro nizolar tugashini uqtiradi: Uning fikricha tashqi

¹ M.Bekmurodov "Ta'lim-tarbiya: gorizontal va vertikal yondashuv nisbati" Ma'rifat 2013 yil 13 mart №21

ta'sir, tazyiq emas, balki, o'zaro anglangan aloqalar ya'ni gorizontaal munosabatlar odamlararo totuvlik va yaxshilikning asosi deb biladi. Uning fikriga ko'ra:

- kishilarning o'zaro bog'likligi zamirida muayyan qabila-urug'larga tegishlilik yotadi, bu esa katta miqdordagi kishilar guruhi o'rtasida ijtimoiy, madaniy, siyosiy yondoshuv yakdilligini tashkil etadi;

- odamlararo munosabatlarning barqaror amal qilishida diniy e'tiqod umumiyliigi ham muhim rol o'ynaydi. Gorizontaal munosabatlarni mustahkamlovchi odamlararo aloqalarda, o'zaro sabr-toqat, bag'rikenglik, urf-odat, an'analar, fe'l-atvor birligi, saviyalar tengliigi, didlar o'xshashliigi, xarakter yaqinliigi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayni vaqtda gorizontaal munosabatlarni mustahkamlashga odamlarning hammasi ham ongli ravishda amal qilmaydilar, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqlid qilib, ya'ni, masala mohiyatini yetarli his etmasdan turib ish qiladilar.

Gorizontaal yondoshuvning muhim o'ziga xosliigi bu insonning o'z atrofidagi sheriklari, hamkasblari, qarindoshlari va do'stlariga nisbatan ongli tarzda doimiy ravishda mehr ko'rsatish yoki o'z yaqinlarga xolis yaxshilikni faqat undan foyda olish ilinjini ko'zlamasdan qilish zarurligini ham ifoda etadi. Gorizontaal yondoshuv odamlararo munosabatlarda ongli yondoshuv, hushyorlik ogohlik zarurligini namoyon etib, har bir ishda yaxshilikni ko'rish, jamiyatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni his etish va shukur etishni ham taqozo etadi.²

Prezidentimiz I.A.Karimov istiqloлга erishilgan ilk davrdayoq mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti uchun odamlararo maqsadlar mushtarakliigi va harakatlar birligi juda zarurligini ta'kidlab "Endi inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish payti keldi", deb aytgan fikrlarida chuqur ma'no – mazmun mujassamdir.

² M.Bekmurodov "Ta'lim-tarbiya: gorizontaal va vertikal yondashuv nisbati" Ma'rifat 2013 yil 13 mart №21

Tarbiya samaradorligiga erishishda vertikal hamda gorizontal yondoshuv xillari amaliyotda keng qo'llaniladi. Tarbiyada vertikal yondoshuv deganda bu maqom, mavqe, lavozim, mulkka egalik farqiga ko'ra munosabatlarni, rahbarning xodimga ta'siri, ular o'rtasidagi masofa darajalari, shuningdek, katta yoshli odamlarning o'z farzandlari, shogirdlari, hamkasb va hammahalla yoshlarga nisbatan ma'naviy ta'siri tushuniladi. Kattalarning yoshlarga vertikal tarzda ta'sir o'tkazishi milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish, vorisiylik an'analarini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Kattalarning ibrat omili orqali tarbiyalash tajribasi xalqimizning asriy an'alarining avlodlardan avlodlarga o'tkazilib, ularning hayotchanligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shu o'rinda vertikal yondoshuvning yoshlar ongiga ko'rsatuvchi ma'lum darajadagi salbiy ta'siri haqida ham to'xtalishni joiz deb hisoblaymiz. Ma'lumki, yoshlar o'zlariga mos do'stlar, tanishlar orttiradilar va ular bilan bo'sh vaqtlarini ko'proq birga o'tkazadilar. Ota – onalar, pedagoglar esa o'z farzandlari, shogirdlarini ularning tengdoshlari bilan emas, balki kattalar gapi, yo'rig'i bilan ish tutishga yo'naltiradilar.

Psixolog olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra, hali aqlini yaxshi tanib olmagan ba'zi yoshlar tarbiyada vertikal yondashuvchi ota – onalar, pedagoglarga ularga g'amxo'rlik qiluvchi insonlar deb emas, balki ularning yo'lini to'sguvchi raqiblar sifatida yondoshishga moyil bo'ladilar.

Xuddi shu nuqtai nazarni tasdiqlovchi hammaga tanish bo'lib qolgan bir manzara, ya'ni, ba'zi talabalarning chet – chetda berkinib, sigareta chekishlari holatini ko'z oldimizga keltiraylik. Chekayotgan talabalar o'z o'qituvchilari, murabbiylarini ko'rib qolishsa sigaretalarini yashirish, o'qituvchilar, kattalar nigohiga tushmaslik payida bo'lishadi. YA'ni, ular o'zlarining boshlariga tushuvchi tashvish va xavfdan himoya qila boshlaydilar.

Afsuski, har qanday himoya – bu o'zini haq deb bilishdir. Agar aynan shu holatda talabalar o'zlari hurmat qiladigan tengdoshlari, kursdoshlarining bunday

vaziyatdan noroziliklariga duch kelsalar va shu qilayotgan ishlari nojo'ya ekanligidan noqulay holatga tushsalar, ya'ni, uyala boshlasalar, natija butunlay boshqacha bo'ladi. Uyalish hissi bu odamning o'zi qilayotgan ishini noto'g'ri, nohaq deb bilishdir. Shu boisdan ham tarbiyada "*O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi*" orqali amalga oshiralayotgan "tengdosh – tengdoshga", "yoshlar – yoshlarga" degan shior samaradorligini yanada oshirishimiz, shubhasiz, katta samara beradi.

Shu boisdan tarbiyada orqadan quvib, do'q – po'pisa qilib yoshlarning himoyaga o'tib olishlariga emas, balki, ularni o'zlari qilayotgan ishlaridan uyalish, noqulay vaziyatga tushib qolishlariga erishish ko'proq natija beradi.

Gorizontalar munosabatlar mushtarak manfaatlar birligini ham taqozo etadi. Manfaatlar mushtarakligi esa korporativ yaqinlikni shakllantirish zaruratini kun tartibiga chiqazadi. Prezidentimiz I.A.Karimov anglangan korporativ manfaatlar uyg'unligini tarkib toptirish xususida shunday deydi: "Jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug'ga, xududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umumdavlat darajasida korporativ manfaatlarining yaxshi anglangan mushtarakligi asos bo'lishi kerak"³.

³ M.Bekmurodov "Ta'lim-tarbiya: gorizontalar va vertikal yondashuv nisbati" Ma'rifat 2013 yil 13 mart №21

1.2. O‘zbekistonda gorizontal va vertikal yondoshuvlarning o‘zaro qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘zbekiston Konstitusiyasiga ko‘ra, respublikada davlat hokimiyati huquqiy davlatning muhim qoidalaridan biri – institusional, funksional va xususiy xususiyatga ega bo‘lgan hokimiyatning bo‘linishi asosida quriladi. Birinchi holatda, hokimiyatning bo‘linishi davlat hokimiyati, bir tomondan, vakillik, ijro va sud hokimiyati, ya’ni gorizontal bo‘yicha, ikkinchi tomondan, markaziy va mahalliy, ya’ni vertikal bo‘yicha bo‘linishini ko‘zda tutadi. Ikkinchi holatda gap mehnat sohalarining bo‘linishi va davlat hokimiyatining turli tarmoq organlari hamda darajalari o‘rtasida vazifalar va vakolatlarning aniq taqsimlanishi haqida boradi.

Vakillik hokimiyati oliy organlari qonun chiqarishning alohida huquqlariga ega xalq suverenitetining ifodachisi hisoblanadi, shu sababli ularni ijro hokimiyati ham deyishadi. Ijro hokimiyati qonunlar bajarilishi va davlat hokimiyati idoralari hamda mansabdor shaxslarning boshqa meyoriy hujjatlari bajarilishini ta’minlaydi.

Hokimiyatning markaziy idoralari o‘z diqqatini umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalarni yechishga, mahalliy idoralar esa mintaqaviy muammolarni hal qilishga qaratadi.

Davlat hokimiyatining turli tarmoqlari va darajalari o‘rtasidagi vazifalarning aniq taqsimlanishi tufayli hokimiyatning har bir tarmog‘i va darajasi o‘z diqqatini faqatgina ularga xos bo‘lgan ommaviy-hokimlik vakolatlarini yechishga qaratadiki, bu jamiyatni hokimiyatning monopolizatsiyasidan xalos qiladi, davlatning cheksiz mustabidlik boshqaruvi quroliga aylanishi imkonini keskin kamaytiradi. Bu davlat hokimiyatining aniq bir tarmog‘i yoki darajasi huquqiy cheklovlarini o‘zida ifoda etadigan konstitusiyaviy va qonunchilik sarf-xarajatlar

va ziddiyatlar tizimi tufayli ta'minlanadi.⁴ Qonun chiqaruvchi hokimiyat, masalan, qat'iy qonun yaratuvchilik faoliyati va prezidentning vetoni kechiktirish huquqi bilan, prezident tomonidan qonun chiqaruvchi organi tarqatib yuborish hamda konstitutsiyaviy sud faoliyati bilan cheklanadi.

Prezident hokimiyati uning vakolatlari muddatining aniq reglamentga solinishi, parlamentning prezidentni vazifasidan chetlatadigan huquqi bilan cheklanadi.

Ijro hokimiyati meyorlar yaratishning qat'iy jarayoni, ularning shakllanishi va hokimiyatning vakillik idoralariga hisobdorligi bilan cheklanadi.

Sud hokimiyati huquqni barcha ehtimoliy buzilishlardan himoya qiladi. Sud hokimiyati Konstitutsiya, protsessual qonunchilik, odil sudlovni amalga oshirishning qoidalari bilan cheklanadi.

Hokimiyatlar bo'linishining xususiy tamoyili hokimiyatning turli tarmoq va darajalarining bitta shaxs tomonidan ifoda etilishiga yo'l qo'ymaydi. Ijro va sud hokimiyati vakillari parlamentga saylana olmaydi, sudya bir paytning o'zida ijro hokimiyati idoralarida lavozimga ega bo'la olmaydi.

Bu qoidaning muhim jihatlaridan biri sudyalarning mustaqilligini ta'minlashdir. Odil sudlovni faqat o'z huquqlarida tan olingan va hokimiyatning turli tarmoqlari, mansabdor shaxslar va jamoat tashkilotlari, fuqarolardan o'ta mustaqil bo'lgan holda, faqat qonun talablariga asoslanib, qarorlar qabul qila oladigan sudya amalga oshirishi mumkin. Huquqni, uning barcha qadriyatlarini faqat huquq, adolat va beg'arazlik qoidalariga asoslanib, faoliyat yuritadigan sudyagina ta'minlashga qodir.

Hokimiyatning bo'linishini uning turli tarmoq va darajalarini bir-biridan to'liq ajratib qo'yish sifatida tasavvur qilmaslik kerak. Davlat hokimiyatining

⁴ Qarang Q.Quronboyev va boshq "Kratologiya-xokimiyatshunoslik ilmi" T: 2012 286-287 betlar

idoralari - umumiy qoidalar va maqsadlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi yagona mexanizm. Ammo bu mexanizmdagi ularning o'zni, bajaradigan roli bir xil emas.

Davlat hokimiyati tizimida oliy maqomni, garchi buni rad etuvchi fikr mavjud bo'lsa ham, qonun chiqaruvchi organ egallaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy maqomi shu bilan izohlanadiki, aynan u jamoatchilik hayoti va davlat faoliyatining huquqiy asoslarini, davlat barcha tarmoqlari va darajalarining vazifalari va vakolatlarini, ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini shakllantiradi. Ammo qonun chiqaruvchi hokimiyatning ustunligi mutlaq emas. U xalqning hokimiyatga nisbatan suverenligi bilan cheklangan bo'lib, huquq va Konstitutsiya tamoyillari bilan bog'langan.

Hokimiyatning bo'linishi tamoyili nafaqat davlat, balki ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazarga ega. U davlat va jamiyat o'rtasida hokimlik vakolatlarining taqsimlanishini ifodalaydi. Hokimiyatning bo'linish tamoyilini bunday ma'noda tasdiqlash – jamiyatning davlatlashuviga, shaxs, jamiyat, xalqning hokimiyatdan begonalashuviga, davlat apparatining haddan ortiq kengayib ketishiga, uning byurokratiyalashuviga yo'l qo'ymaslik, hokimiyatning suverenitet subekti sifatida xalqqa hokimiyatni o'zi amalga oshirishi imkoniyatini berishni bildiradi.⁵

Bundan tashqari, jamiyat hayotida qonuniylik mezonlariga to'liq amal qilinishi uchun hokimiyatning bo'linish zaruriyati yuzaga keladi. Ayni shu maqsadda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishi etib hokimiyatning bo'linish tamoyilini amalga oshirishni ta'minlash, jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyatining rolini oshirish kabi masalalar belgilab olindi. Bu yo'lda jamiyat hayotining barcha yo'nalishlarida **“Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari”** g'oyasi asosida muhim natijalarga erishildi. Prezident I.A.Karimov mazkur uchta yo'nalishdagi islohotlar yuzasidan quyidagi fikrni bildiradi: “Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining

⁵ Qarang Q.Quronboyev va boshq “Kratologiya-xokimiyatshunoslik ilmi” T: 2012 288-289 betlar

qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi”, “Davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentga aylantirildi”³⁵⁵, “Sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta’minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo‘yildi va muvaffaqiyatli hal etildi”⁶.

Shuning uchun ham 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi tamoyili mustahkamlab qo‘yildi. Bu tamoyil Konstitutsiyaning 11-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi» degan qoidada aks ettirilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlatning uch tayanchi hisoblanadi. Konstitutsiyada ularning vakolatlari aniq belgilab berilgan.

Atoqli huquqshunos S.Alekseyev hokimiyat bo‘linishi nazariyasini hokimiyatni tartibga solish zaruriyati deb, bejiz ta’kidlamagan.

O‘zbekiston Prezidentining asarlarida davlat va jamiyat qurilishining ko‘pgina masalalari qatori hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi tamoyilini mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida qo‘llash zarurati va ahamiyati atroflicha asoslab berilganini aytib o‘tish zarur. Chunonchi, Prezident I.A.Karimov hokimiyatning konstitutsiyaviy bo‘linishi, nafaqat davlat organlarining samarali ishlashini ta’minlovchi vosita, ayni paytda, adolat va tartib-intizom garovi ekani haqida to‘xtalib, bunday degan edi: “Agar biz hokimiyat tarmoqlarining bo‘linishi tamoyiliga amal qilmasak, har qaysi ijro hokimiyati rahbari hokimiyatning boshqa tarmog‘i ishiga bunday o‘zboshimchalik bilan aralashishiga urinadigan bo‘lsa, u holda, hayotda adolat u yoqda tursin, oddiy tartib-intizomni o‘rnatib bo‘ladimi?”.

⁶ Ўша манба. 31-б

Prezident hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi prinsipini amalga oshirish borasidagi vazifalar xususida to‘xtalib, quyidagicha fikr yuritgan edi: “Biz oldimizga qo‘ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo‘lsak — har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo‘ladimi — bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. YA’ni har qaysisi o‘z vazifasini anglashi, o‘z mas’uliyatini his qilishi, o‘z yukini ko‘tarishi va ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor”. Demak, hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi natijasida hayotning o‘zi kun tartibiga qo‘yayotgan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi vakolatlar aniq bo‘lishi, buni tegishli hokimiyat tuzilmalari rahbarlari teran anglashi, mas’uliyatni his etishi kerak. Shundagina hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo‘linishi kutilgan samara berishi, mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilishi, huquqiy demokratik davlat, kuchli adolatli jamiyat qurish omiliga aylanishi mumkin.⁷

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi **“Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”** nomli ma’ruzasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari, jumladan, hokimiyat bo‘linishiga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Ma’ruzada “Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo‘lmish mamlakat Parlamentining roli va ta’sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat”, ekani qayd etildi.

Bunda, avvalambor, Prezidentning ba’zi vakolatlarini parlamentning yuqori palatasi - Senatga va hukumatga o‘tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi - Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan va hozirning o‘zidayoq bu boradagi say-harakatlarning amaliy samarasi ko‘rinib turibdi. Bu hukumat faoliyatining kengayishiga hamda

⁷ Qarang Q.Quronboyev va boshq “Kratologiya-xokimiyatshunoslik ilmi” T: 2012 289-286 betlar

mas'uliyatining oshishiga olib keladi, davlat organlari faoliyatini qonuniy asosda chegaralash, ularning vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishida so'zlagan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”** nomli ma'ruzasida o'tgan davr mobaynida yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar haqida shunday degan edi: “...o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi”.

Aslida ham demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan davlatda hokimiyatlarning bo'linishi, ular o'rtasidagi muvozanatning ta'minlanishi barqarorlik kafolati hisoblanadi. Shu bois, hokimiyatlar bo'linishi — huquqiy-demokratik davlatning zaruriy sharti bo'lib, unga to'la amal qilish vakolatlarining suiiste'mol etilishiga to'siq qo'yadi, fuqarolarni mansabdor shaxslar tazyiqidan himoyalaydi, boshqaruv idoralari zimmasidagi mas'uliyatni oshiradi. O'zbekistonda ham hokimiyatning uch tarmog'ining o'zaro bir-birini tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash masalasi Prezident Islom Karimov boshchiligida olib borilgan siyosiy islohotlarning tub mohiyatiga singdirilgan. Zero, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa — qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror tenglikka erishishdan iborat. Konsepsiya ushbu muvozanatni

ta'minlaydigan mexanizmni joriy etish va yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim dasturilamal hujjatdir.

II BOB Shaxs ma'naviyatini belgilashda ta'lim-tarbiyaning roli

2.1. Shaxs ma'naviy tarbiyasida oila va maxallaning o'рни

Tarbiya samaradorligiga erishishda vertikal hamda gorizontal yondoshuv xillari amaliyotda keng qo'llaniladi. Tarbiyada vertikal yondoshuv deganda bu maqom, mavqe, lavozim, mulkka egalik farqiga ko'ra munosabatlarni, rahbarning xodimga ta'siri, ular o'rtasidagi masofa darajalari, shuningdek, katta yoshli odamlarning o'z farzandlari, shogirdlari, hamkasb va hammahalla yoshlarga nisbatan ma'naviy ta'siri tushuniladi. Kattalarning yoshlarga vertikal tarzda ta'sir o'tkazishi milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish, vorisiylik an'analarini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Kattalarning ibrat omili orqali tarbiyalash tajribasi xalqimizning asriy an'analarining avlodlardan avlodlarga o'tkazilib, ularning hayotchanligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shu o'rinda vertikal yondoshuvning yoshlar ongiga ko'rsatuvchi ma'lum darajadagi salbiy ta'siri haqida ham to'xtalishni joiz deb hisoblaymiz. Ma'lumki, yoshlar o'zlariga mos do'stlar, tanishlar orttiradilar va ular bilan bo'sh vaqtlarini ko'proq birga o'tkazadilar. Ota – onalar, pedagoglar esa o'z farzandlari, shogirdlarini ularning tengdoshlari bilan emas, balki kattalar gapi, yo'rig'i bilan ish tutishga yo'naltiradilar.⁸

Psixolog olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra, hali aqlini yaxshi tanib olmagan ba'zi yoshlar tarbiyada vertikal yondashuvchi ota – onalar, pedagoglarga ularga g'amxo'rlik qiluvchi insonlar deb emas, balki ularning yo'lini to'sguvchi raqiblar sifatida yondoshishga moyil bo'ladilar.

⁸ M.Bekmurodov "Ta'lim-tarbiya: gorizontal va vertikal yondashuv nisbati" Ma'rifat 2013 yil 13 mart №21

Xuddi shu nuqtai nazarni tasdiqlovchi hammaga tanish bo‘lib qolgan bir manzara, ya’ni, ba’zi talabalarning chet – chetda berkinib, sigareta chekishlari holatini ko‘z oldimizga keltiraylik. Chekayotgan talabalar o‘z o‘qituvchilari, murabbiylarini ko‘rib qolishsa sigaretalarini yashirish, o‘qituvchilar, kattalar nigohiga tushmaslik payida bo‘lishadi. YA’ni, ular o‘zlarining boshlariga tushuvchi tashvish va xavfdan himoya qila boshlaydilar.

Afsuski, har qanday himoya – bu o‘zini haq deb bilishdir. Agar aynan shu holatda talabalar o‘zlari hurmat qiladigan tengdoshlari, kursdoshlarining bunday vaziyatdan noroziliklariga duch kelsalar va shu qilayotgan ishlari nojo‘ya ekanligidan noqulay holatga tushsalar, ya’ni, uyala boshlasalar, natija butunlay boshqacha bo‘ladi. Uyalish hissi bu odamning o‘zi qilayotgan ishini noto‘g‘ri, nohaq deb bilishdir. Shu boisdan ham tarbiyada “*O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi*” orqali amalga oshiralayotgan “tengdosh – tengdoshga”, “yoshlar – yoshlarga” degan shior samaradorligini yanada oshirishimiz, shubhasiz, katta samara beradi.

Shu boisdan tarbiyada orqadan quvib, do‘q – po‘pisa qilib yoshlarning himoyaga o‘tib olishlariga emas, balki, ularni o‘zlari qilayotgan ishlaridan uyalish, noqulay vaziyatga tushib qolishlariga erishish ko‘proq natija beradi.

Gorizontal munosabatlar mushtarak manfaatlar birligini ham taqozo etadi. Manfaatlar mushtarakligi esa korporativ yaqinlikni shakllantirish zaruratini kun tartibiga chiqazadi. Prezidentimiz I.A.Karimov anglangan korporativ manfaatlar uyg‘unligini tarkib toptirish xususida shunday deydi: “Jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug‘ga, xududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umumdavlat darajasida korporativ manfaatlarning yaxshi anglangan mushtarakligi asos bo‘lishi kerak”.

Gorizontal tarbiya samaradorligi maqsad omiliga ham ko‘p jihatlarga ko‘ra bog‘liqdir. Atoqli faylasuf Aristotel o‘zining “Poetika” asarida “Maqsadi yo‘q kishining xarakteri ham bo‘lmaydi. Xaraktersiz odamning biror bir narsaga

qiziqishi, ragʻbati ham boʻlmaydi” deb taʼkidlaydi (Aristotel “Poetika” T.: 1974y. 4 bet).

Alisher Navoiy shaxzoda Badiuzzamonga yozgan maktublaridan birida maksad xususida shunday ibratli fikrlarni bayon qiladi. “Odamning murod-maksadi boʻlmasa balolardan omon qolmaydi. Ammo har kishining murodi koʻproq boʻlsa, haq-taolo amriga itoati ham koʻproq boʻladi. (Alisher Navoiy, asarlar, un uchinchi tom, T.: 1966, 126-bet).

Demak, yoshlar oʻrtasida gorizental darajadagi totuvlikni taʼminlash uchun dastavval maqsad tarbiyasini yoʻlga qoʻyish, ularning ongi, kalbida kelgusi hayot orzularini tarkib toptirish oʻta muhim masaladir.

Maqsadning shakllanishida qiziqish omili muhim rol oʻynaydi. Yoshlarda muayyan soha, kasb yoki mashgʻulotlarga qiziqishni uygʻotish va uni kuchaytirib borish katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa, aholi ongida qiziqish hamda ehtiyojlarning real holati, u yoki bu sohaga qiziqish darajalarining oʻsish, oʻzgarib borish jaroyonlarini jiddiy oʻrganib borish dolzarb masaladir.

Qiziqish omiliga yondoshganda masala mohiyatini teran anglagan holda munosabat bildirish zarurdir. Zero, qiziqish umundan xususga, jamoaviy koʻlamlardan individ, shaxs darajasiga koʻchirilgandagina, yaʼni, inson oʻzi qiziqayotgan narsaga kalban va aqlan anglangan tuygʻular bilan yondosha olgan xoldagina u bunyodkor kuchga aylanadi. Yurtboshimiz mazkur masala xususida shunday fikrni izxor etadilar: “Bugungi kunda eski shoʻro davridagi kabi quruq tashviqot bilan biror natijaga erishib boʻlmaydi. Yoshlarda avvalo hayotga qiziqish, qiziqish va yana bir bor qiziqish uygʻotish kerak va bu maʼnaviy-maʼrifiy ishlarimizning negizini tashkil etishi lozim.”⁹

Aslida odamga qachon va qanday sharoitda taʼsir oʻtkazish, ongi va shuuriga biron gʻoyani singdirish mumkin? Qachonki, unda oʻsha gʻoyaga qiziqish

⁹ M.Bekmurodov “Taʼlim-tarbiya: gorizental va vertikal yondashuv nisbati” Maʼrifat 2013 yil 13 mart №21

uyg'onsa. Odamning o'zida qiziqish bo'lmasa, tabiiyki, uning miyasiga zo'ravonlik bilan hech narsani singdirib bo'lmaydi".¹⁰

Ta'lim - tarbiya jarayonida gorizental yondoshuvning muhim o'ziga xosligi pedagog va talaba o'rtasida yuz beruvchi ijtimoiy sheriklik asosidagi faoliyat va muloqotlar asnosida namoyon bo'ladi.

Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi muloqotda ustoz va o'quvchi teng huquqli hamkorlar sifatida yondoshadilar. Pedagog guruhdagi har bir o'quvchiga shaxs sifatida yondoshadi. Pedagog o'quvchilarga teng va differensial yondoshib ularni kuchli va kuchsizlarga ajratmaydi.

Eng muhimi pedagog ta'lim va tarbiya muammolarini yechishda o'zini o'quvchi o'rniga, o'quvchi esa o'zini pedagog o'rniga qo'yib ish tutadi. O'quvchining mustaqil fikri, faoliyati va tashabbusi rivojlantiriladi va rag'batlantiriladi. O'quvchining fanlarni o'zlashtirishi jarayonida uning shaxsi, ruhiy holati, individual sifatlari ham uyg'un tarzda nechog'li takomillashib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Gorizental yondoshuv o'quvchilarning har bir bilim dovonlarini egallagandan so'ngi ichki faxrni, qoniqishni tarkib toptirib, yangi marralarni zabt etishga doimiy rag'bat berib turadi. Bunday yondoshuv yoshlarda nurli istiqbol motivatsiyasini, yuqori cho'qqilarga ijtimoiy mo'ljal olish, o'z – o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini o'zi baholash darajasini oshiradi. Gorizental yondoshuv mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizdagi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" mazmun – mohiyatini to'laroq yuzaga chiqazishga imkon yaratib, shaxs, inson, omili ustuvorligini ta'minlashga, har bir ta'lim subektini hech kimdan kam bo'lmagan va hech kimdan kam bo'lmaydigan shaxslarni tarbiyalashga to'la – to'kis xizmat qiladi.

Sobiq sho'rolar davridagi ta'lim – tarbiya tizimi to'laligicha vertikal yondoshuv asosiga qurilgan edi. Ta'limdagi vertikal yondoshuvda pedagog shaxsining ustuvorligi, uning fikri, ta'limiy uslublari va hatto fe'l – atvori

¹⁰ Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston" 2006 yil. 5 bet.

birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi ta'limning shunchaki iste'molchisi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Vertikal yondoshuvda o'quvchining ta'limiy resurslarni faqat o'zlashtirish jarayonlariga asosiy e'tibor qaratiladi. Vertikal yondoshuvda ta'limning subekti, ya'ni o'quvchi o'rganilishi zarur bo'lgan o'quv materialining yaratuvchisiga aylana olmaydi.

Bunday yondoshuvda pedagog guruhni muayyan maqsad yo'lida birlashtirolmaydi, natijada pedagog va o'quvchi o'rtasida masofa shakllanib qoladi. Guruhdagi ichki nizolarga aralasha olmaydi, ularning ijtimoiy maqbul yechimida ishtirok etmaydi. Bunday holat esa guruh a'zolari o'rtasida tartibsizlik, dangasalik, faoliyatsizlik va mas'uliyatsizlikning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Vertikal yondoshuvda pedagog o'zini o'quvchi o'rniga qo'yish orqali holatga real baho berishga harakat qilmaydi u har qanday muammoli vaziyatlarda o'zini haq deb biladi. Erkin fikrlashga yo'l qo'ymaydi.

Vertikal yondoshuv asosidagi ta'lim – tarbiyada pedagog o'quvchilarning har bir tashabbusini umumiy tartibotlarni buzish deb hisoblab, uni imkoni boricha rad etadi.

Ayni chog'da vertikal yondoshuv o'quvchida qo'rquv, irodasizlik, qat'iyatsizlik, himoyasizlik hissini ham kuchaytiradi. Ta'limda vertikal yondoshuvning eng xavotirli jihati, bu o'quvchining o'zini yuqori maqomdagi imkoniyatlar, ideal tiplarga identifikatsiya qilishdan tiyib qo'yishi va uning identifikatsiya doirasi faqat o'z guruhi, hamqishloqlari, hamkasblari darajasi bilan cheklanib qolinishidir.

Vertikal yondoshuvning muhim o'ziga xosligi bu o'quvchiga doimiy qat'iy nazorat obekti deb yondoshilishi va unga ta'sir o'tkazilishi kerak bo'lgan makon sifatida qaralishidir. Chunki sho'rolar davrida o'quvchi ta'lim – tarbiyaga doir xolatlar yechimida mutlaqo ishtirok etmagan va u hamisha muayyan holatlar qurboni sifatida namoyon bo'lib turgan. Bunda o'quvchilarning bor kuchi, diqqat-

e'tibori ongli ravishda bilim egallab, o'z – o'zini rivojlantirishga emas, balki o'zini doimo tashqi ta'sirlardan himoya qilishga qaratib kelgan.

Istiqlolimizgacha bo'lgan davrdagi ta'lim to'laligicha vertikal yondoshuv asosiga qurilgan bo'lib, o'quvchi ta'limning passiv ishtirokchisi sifatida qabul qilinardi. Sobiq sho'rolar davrining taniqli pedagogi A.S.Makarenkoning "Hamma narsa kollektivda", "hamma narsa kollektiv uchun" va "hamma narsa kollektiv orqali" degan shiori vertikal yondoshuvning o'q tomiri bo'lib, kollektivizm omili mutloq darajaga ko'tarilgan, inson, shaxs esa kollektivning qurboniga aylantirilgan edi.

Oila jamiyatning bir bo'lagi. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashishi natijasida vujudga keladi. Oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga o'z ta'sirini ko'rsatadi, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi.

1998 yil mamlakatimizda «Oila yili» deb e'lon qilingan edi. Shu munosabat bilan hukumatimiz ishlab chiqqan tadbirlar oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va oiladagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratildi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: «Oila jamiyatning asosi, milliy mustaqillik g'oyalari qaror topishining tayanchi hisoblanadi. Yurtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi»¹¹.

Farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsa, oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shuning uchun bolalar turmushining murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol

¹¹ I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. –T.: «O'zbekiston», T.8. 2000 y., 502 bet.

topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Oila tarbiyasi murakkab jarayondir, chunki har bir oila o'ziga xos sibir olamdir. U tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashishi va ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga bog'liq bo'ladi. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlariga bog'liq. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'rgatishga bog'liqdir. Oila inson uchun muqaddas va ulug' dargohdir. Inson ana shu dargohda tug'iladi, o'sadi, voyaga yetadi.

Oilaning maqsadi – ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

Oilaning vazifasi – er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalashdan iboratdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek «Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllari qanday inson bo'lib yetishishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'qchog'i ekanini tan olishimiz darkor»¹².

Ota-ona farzandlar nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun ular farzandlari oldida eng yaxshi sifatlari bilan obro' qozonishlari mumkin. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-ona o'z farzandlari tomonidan bir umr ezozlanadi. Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga qarab izzat-hurmatni, muomalani o'rganib boradi. Ota-onalarimiz bir-biriga mehribon bo'lsalar, shirin muomala qilsalar, bolalar ham shunga ko'nikma hosil qilib, shunday muomalaga o'rganadilar. Oilada ayol turmush o'rtog'ini hurmat qilsa,

¹² I.A.Karimov. Oila farovonligi – millat farovonligi. –T.: «O'zbekiston», T.6. 1998 y., 400 bet.

oiladagi o'g'il-qiz farzandlarimiz ham onaning bu harakatini ko'rib, otasiga hurmati oshadi. Ota-onani hurmat qilish kerakligini tushunib boradi.

Afsuski, hamma oilalarda ham shunday o'zaro hurmat va mehr-oqibat mavjud emas. Ba'zi oilalarda erni hurmat qilish o'rniga ularga hukmron bo'lish, ularni «o'z izmiga solish»ga bo'lgan intilish harakatlari ham uchraydi. Ba'zi bir ayollarimiz borki, ular eridan ozgina ko'proq topganlari uchun minnat qiladilar. Ba'zi xolatlarda erkak ichkilik ichib, mast holatda uyga kelib, ayolini farzandlari oldida haqoratlab, behurmat qiladi. Bu holatni ko'rgan bolalar ota-onalarini hurmat qilmaydi. Bolalar haddan tashqari taqlidchan bo'ladi. Ota-onalaridan ko'rganlarini takrorlaydi.

«Qush uyasida ko'rganini qiladi» deganlaridek, farzandlar ham ota-ona bag'rida o'sib-ulg'ayarkanlar, ularning yurish-turishlaridan, hatti-harakatlaridan ibrat olib, tajriba orttirib boradilar.

Xalqimiz qadim-qadimdan ota-onani olamda eng ulug', mo'tabar, eng hurmatga loyiq zot deb hisoblaydilar. Qur'oni Karim, Hadisi Shariflarda hamda son-sanoqsiz hikmatlarda va rivoyatlarda ota-onaning farzand uchun qanchalar qadrli, mehribon kishilar ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Hazrati Alisher Navoiy ham bolalarning ota-onalariga doimo hurmatda bo'lishlari zarurligini uqtirib, ota-onalaringni hurmat qilinglar, birini oy deb bilsanglar, birini quyosh deb bilinglar deydi.

Ota va ona orasidagi munosabatlar bola shaxsining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi sir emas. Ota-onalar va ularning farzandlari bir butun yaxlitlikni tashkil etadi. Unda ota-ona kichkintoyning ruhiy rivojlanishi uchun poydevor, asos hisoblanadi. Ushbu omil yaqqol ekaniga qaramasdan, kattalarning hammasi ham ularning janjallari batamom ota-onaga bog'liq bo'lgan bola psixikasiga qanday ta'sir qilishi, oiladagi muhit va unga munosabat haqida o'ylab o'tirishmaydi.

Bola muloqot qilganida ochiq, o'ziga ishongan bo'ladimi yoki yo'qmi, ko'p hollarda u oilasida his etadigan himoyalanganlik hissiga bog'liq bo'ladi. Agar

oilada janjal va nizolar tez-tez bo'lib tursa, kichkina odam atrofdagilarga ishonch hissini yo'qotadi. Kichkintoylar ham, hatto o'smirlar ham hozircha odamlarning o'zaro munosabatlaridagi qiyinchilik va ziddiyatlarni tushuna olishmaydi. Ular uchun aziz va mehribon kishilari – har doim yaxshi. Bola ota-onasini ham yaxshi ko'radi va ularni janjallari hamda o'zaro haqoratlarini olamning falokati sifatida qabul qilishadi. Eng dahshatlisi, kichkina bolalar nizo sabablarini tushuntirib bera olishmaydi va aybni o'z yelkalariga olishadi. Ular o'z holatlarini namoyon eta olmaydi, o'z kechinmalari bilan o'rtoqlasha olmasdan qiyinlashadi.

Albatta, janjallar hamma oilada bo'lib turadi, hatto eng baxtli oilalarda ham. Ammo ularning farqi shundaki, ba'zi bir oilalarda kattalar o'z noroziliklarini «konstruktiv» tarzda bildirib, bir-birlarini tushunishga harakat qilishsa va yarashishga intilishsa, boshqalari bir-birlarini haqorat qilgan holda, munosabatlarni buzishadi, ba'zan esa o'z janjallariga farzandlarini ham jalb etishadi. Eng yomon holatlarda boladagi ruhiy jarohat asab buzilishlariga, ya'ni tik (tana a'zolarining pir-pir uchishi), enurez xastaliklari, tungi daxshatlarga olib kelishi mumkin.

Bolalar nafaqat yaqqol nizolar va janjallarga og'riqli munosabatda bo'lishadi, ular hatto uy muhitidagi emotsional begonalik, aytilmagan norozilik, puxtalik bilan yashirilgan keskinlikka ham juda ta'sirchan bo'lishadi. Shu bois ba'zida yaxshi janjal, yomon yarashuvdan ko'ra yaxshiroq, faqat nizo «bunyod etuvchi» bo'lishi va ikkala tomon ham murosaga tayyorligi sharti bilan.

Nizoli vaziyatlarni odamning ko'ziga hech narsa ko'rinmaydigan va jahl chiqqanda yoningizda farzandlaringiz borligini unutadigan janjallarga aylantirmaslik uchun bor kuchingizni sarflang. Muammolarni ular paydo bo'lishiga qarab, tinch vaziyatda muhokama qilishga harakat qiling. Noroziliklarni ichingizga yutmang, u bir kunmas bir kun baqiriq va haqoratlar bilan yuzaga chiqishi mumkin.

Ota-onalar o'zlarini har qanday janjalda ham vazmin tutishlari kerak, chunki bolalarga eng katta zararni oiladagi janjallar yetkazadi. Agar o'zingizni tutib tura

olmagan bo'lsangiz va farzandlaringiz oldida urishib qolsangiz, bolalar yarashganingizni ko'rishlari uchun janjalni ijobiy tarzda yakunlashga harakat qiling. Hech bo'lmasa farzandlaringiz uchun to'g'ri tortishishni va munosabatlarga vazminlik bilan oydinlik kiritishni o'rganing. Oilada ota-onalarning munosabatlariga qarab farzandlar ham ota-onaga, tengdoshlariga va atrofdagilari bilan salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishga harakat qiladi.

Birinchidan, o'zbek oilalarida vertikal va gorizontal munosabatlar tarixan shakllangan bo'lib, ularga amal qilishni makro va mikro oilalarda o'rganish;

Ikkinchidan, o'zbek oilalaridagi farzandlar o'rtasidagi uzaro turli yoshdagi farqlarga muvofiq, tarbiyaning turlicha darajada namoyon bo'lishi;

Uchinchidan, ayrim ota-onalar o'rtasidagi uzaro munosabatlarning keskinlashuvi natijasida farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning salbiylashishi;

To'rtinchidan, o'zbek oilalarida vertikal va gorizontal munosabatlarni o'rganishda keng kulamda sotsiologik tadqiqotlardan foydalanish;

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov onalar va bolalar to'g'risida gapirar ekan, ayollar va bolalar manfaatlariga rioya qilish, «baxtli va sog'lom onalik», «baxtli va sog'lom bolalik» tushunchalari so'zda emas, amalda ro'yobga chiqishi uchun doimiy ravishda va ustuvor e'tibor berilishini talab etuvchi muammolarni hal etishni ta'kidlaydilar.

XXI asrning birinchi yili «Ona va bolalar» deb e'lon qilinishida chuqur ramziy ma'no bor. Texnologiyalar murakkablashadi va takomillashtiriladi, yangi ilmiy kashfiyotlar qilinadi, turmush darajasi o'zgarib boradi, biroq onalarning o'rni va avlodlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi uzilmas aloqa insoniyat jamiyatining asosi ekanligicha qoladi. Millatning farovonligi, hamisha bo'lganidek, jamiyatda ayollar va bolalar huquqlari qanchalik himoya qilinganligiga qarab baholanadi.

Ayollarning jamiyat turmushida, uni boshqarishda ishtirok etishi davlatning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Tarixga aylangan XX asrda ayollarning jamiyatdagi o'rniga qayta baho berildi. Bugungi kunda insoniyat

tomonidan ayollarning oilada va bolalar tarbiyasidagi, ishlab chiqarishdagi, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini anglab olish jarayoni davom etmoqda. Chunki mamlakatimiz mehnat salohiyatining yarmidan ko'pini ayollar tashkil etadi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei ko'p jihatdan ayollarning bilimi va kasb mahoratiga bog'liqdir, yana oila va bolalar uchun mas'uliyat yuki ham e'tiborga olinadigan bo'lsa, jamiyatimizda xotin-qizlar o'nchalik katta o'rinda turishi ayon bo'ladi.

Ishlab chiqarishning texnika bilan jihozlanishining takomillashuvi, maxsus bilimlar sifatiga qo'yilayotgan talablarning o'sishi, bozor munosabatlari kasb-kor mahoratining yetarlicha yuksak darajada bo'lishini taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy kasb bilan bog'liq faolligini oshirishga da'vat etadi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar o'sib kelayotgan avlodning sog'ligini muhofaza qilish muammosini hal etishning muhim shartidir. Chunki zarur resurslarsiz mamlakatning yangi tug'ilayotgan fuqarolarining barchasiga ularning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayot darajasini ta'minlash mumkin emas.

O'zbekiston ko'p yillar davomida bolalar tug'ilishini rag'batlantirish siyosati qo'llab-quvvatlandi. Hozirgi vaqtda bunday siyosat qayta ko'rib chiqildi hamda reproduktiv sog'liq va oilani rejalashtirish dasturiy hayotga joriy etildi. Modomiki, «Sog'lom ona – sog'lom bola» qoidasi shubha ostiga olinmas ekan, ayollarni sog'lomlashtirish ishi chaqaloqlar o'limi darajasiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Biroq yolg'iz va erdan ajralgan ayollar sonining ko'pligi jiddiy muammoligicha qolmoqda. Jamiyatda ham iqtisodiy, ham reproduktiv sog'liq sohasida oilani mustahkamlash vazifasini o'z zimmasiga olishi maqbul bo'lgan bo'lar edi.

Oila manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlarining amalga oshirilishi ona va bola sog'ligini muhofaza qilish jarayonini yanada yuqori sifat darajasiga ko'tarish imkonini beradi.

Farzand tarbiyasida, eng avvalo oila hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Oiladagi hamma narsa, hatto eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylik, sadoqatlilik va shirinsuxan bo'lish inson kamolotida muhim vositadir.

Oilada bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun avvalambor ularni sevishtirish, mehr ko'rsatish va hurmat qilish kerak. chunki bolalar ularni seva olgan, hurmat qila olganlarni qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l-yo'riqlarini, turli topshiriqlarini so'zsiz ado etadilar. Ota-onaning, oiladagi barcha kattalarning mehr-muhabbati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal axloqiy tuyg'ularni, ayniqsa, qadriyatni his qilishda yordam beradi.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida so'zi va ishi bilan shaxsiy namuna ko'rsatishi, uning hatti-harakatlaridan yaxshilik alomatlari sezilib turishi, haqiqat va samimiylikdan saboq berishi, har bir aytgan so'zdan ilqlik, mehr-muhabbat sezilib tursa qanday yaxshi. «qush uyasida ko'rganini qiladi», «Farzand – ota-ona axloqiy qiyofasining ko'zgusi» kabi naqlar bejiz aytilmagan. To'g'risi ham shu, yaxshi xulqli, ijobiy fazilatli ota-onalardan farzandlariga tabiiy ravishda eng qimmatli axloqiy xislatlar o'tib boradi.

Afsuski, bugungi kunda ayrim ota-onalar oilani moddiy ta'minlash bahonasi bilan farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik qilmoqdalar. Otalar pul topish maqsadida xorijga ishlagani ketib, uzoq vaqt qolib ketmoqdalar. Ba'zi ota-onalar tirikchilik bahonasi bilan voyaga yetmagan bolalarini bozorga chiqarib qo'yarmoqdalar. Jamiyatda sodir bo'layotgan ko'pgina noxushliklar aynan tarbiyaga e'tiborning susayganidan kelib chiqayotganligini ko'rsatadi. Oiladagi notinchlik, kunora janjal, ichuvchi ota yoki onaning axloqsizligi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, huquqbuzarlik, ayrim hollarda esa jinoyat qilish ko'chasiga yetaklab kelmoqda.

O'zbek xalqi qadimdan o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy madaniy merosi bilan jahonni lol qoldirib kelgan. Uning o'ziga xos, takrorlanmas oilaviy an'analari borki, farzand tarbiyasida ulardan oqilona foydalanish har bir ota-onaning kundalik ehtiyojiga aylanishi lozim.

Yoshlarning axloqan pok, jismonan sog'lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ular qalbida insonparvarlik, milliylik, odamiylik kabi xislatlarni shakllantirishda oila mustahkamligi va muqaddasligiga erishish bugungi kunning dolzarb mavzusi ekanligini unutmash zarur.

A.Navoiyning ushbu misralarini keltirib o'tishni joiz topdim.

Boshni fido ayla ato boshig'a,

Jismni qil sadqa ano qoshig'a.

Ikkisini aylag'ali nurposh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Bobokalonimiz yashab ijod qilgandan buyon jamiyatimiz bir nechta ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Shu bilan birga, xalqning ongi o'zgarib, fikrlash darajasi takomillashib bordi. Ong hayot bilan birga rivojlanib bordi. Mehnat taqsimoti vujudga keldi. «Oz va ko'p» tushunchalari paydo bo'ldi. Buning natijasida insonlarning mehnatga munosabati o'zgardi. YA'ni xalq yaxshi turmush tarzi asosida inson mehnati yotishini anglab yetdi. Endi shunday savol tug'iladi. Xo'sh, yosh avlodni tarbiyalash, uni vatanga, xalqiga, xalq urf-odatlariga, madaniyatiga, tarixiga, diniga sodiq bo'lishiga o'rgatib borish uchun, tarbiyani nimadan boshlash kerak? Mening nazarimda, tarbiyaning tayanch nuqtasi farzandning o'z ota-onasiga yaxshi munosabatidadir. Yosh avlodga ota va onaning ulug'ligi, martabalari oliy ekanligini ta'kidlab borish o'rinlidir. Qur'oni Karimda shunday deyilgan: «Allohga ibodat qilinglar va unga hech narsani sherik qilmanglar, hamda ota-onangizga yaxshilik qilinglar» (Niso surasi, 36-oyat). Afsuski, ba'zan turmush tarzimizda farzandlarning ota-onalarga bo'lgan ijobiy munosabatlari o'rnini salbiy munosabatlar egallaganini uchratib turamiz.

Xalqimizda, «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» degan naql bor. Bu bejizga aytilmagan. Chunki ko'pincha ziyoli odamlar o'z ota-onasiga noinsoniy munosabatda bo'lishadi. Ularning g'animat ekanligini anglab yetishmaydi. Vaqtlarini qizg'anadilar. Hozirgi kecha-kunduzda ayrim fuqarolar ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish o'rniga, ularning tirikligida meros talashishadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari

qonun bilan kafolatlangan moddalar bor. Jumladan, Oila kodeksining 66-moddasida: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar oʻz ota-onalari haqida gʻamxoʻrlik qilishiga majburdirlar» deyilgan. Ota-ona farzandini katta mashaqqat bilan voyaga yetkazdi. Oʻzi yemasdan unga yedirdi, kiymay kiydirdi. Ammo oqibatini bilmaydi. Faqat qarigandagina oʻz mehnati mahsuli mevasini tatib koʻradi. Agar oʻsha meva shirin chiqsa, u qarilik gashtini suradi. Achchiq chiqsa, albatta, aziyat chekadi. Hatto inglizlarda ham shunday maqsad bor: «Oʻgʻil uylanguncha farzand, qiz umrbod farzand!». Biz buni kundalik turmushimizda koʻplab uchratamiz. Ayrim kishilar ishda xushfeʼl, xushmuomala, gʻamxoʻr boʻlib koʻrinishadi. Ammo uyga kelgach, toʻnning teskarisini kiyishadi, qoʻpol va injiq boʻlishadi. Bu hislatlar darhol uning ota va onasiga munosabatida yaqqol namoyon boʻladi. Ota-onasidan turmush oʻrtogʻini ustun qoʻyish, ularni odamlar oldida ochiqdan-ochiq yomonlash, uy ishlarida yordam bermaslik, ota-ona qarib yordamga muhtoj boʻlib turganida ularning ruxsatisiz boshqa yoqqa koʻchib ketish va hokazo.

Ota-onaga qoʻpollik qilish, ularga tik boqish va xoʻmrayish, nasihat qilishganda norozilik belgisi sifatida «uf» tortish va boshqa salbiy illatlar sira kechirilmaydigan holatlar hisoblanadi.

Otaga tik qarash, uning gapiga quloq solmaslik qadimdan qoralanib kelingan. Ota duosini olmagan yigit-qiz hech qachon baxtli hayot kechirolmaydi.

Demak, farzandning kelajakda ota-onasi bilan salbiy yoki ijobiy munosabatda boʻlishiga ota-onaning ahamiyati beqiyos. Oilada vertikal munosabatlarning koidadalari: xurmat kursatish, pand-nasihatga kulok solish, maslaxatlashib ish kurish, suroklash va surab turish, eʼtiborli bulish, xizmat kilish, farzandlik burchini ado etish.

Gorizontal munosabat qoidalariga esa: yaqin kondoshligini unutmaslik, bir-birini kullab-kuvvatlash, bir-biriga tugri yul kursatish, aka-uka, opa-singillar urtasidagi statusni saklash.

Bundan tashqarish oʻzbek oilalarida vertikal munosabatlardagi muammolar quyidagilarda kurinadi:

- Ota-ona tomonidan farzandlarga yunaltirilgan tarbiyaning uzluksizligini ta'minlanmaganligi;
- Ota-onalar tomonidan farzandlarga zuravonlik xolatlarining uchrashi;
- Oilada ijtimoiy, iktisodiy nochor axvol natijasida farzandlarda devyatsiya xolatining vujudga kelishi (turli okimlar, jinoyatlar);
- Vertikal munosabatlarning keskinlashuvi va uning muxim kurinishlari (ota-onalarning farzandini ok kilishi, uz oilasidan maxrum kilish).

O'zbek oilalarida gorizontal munosabatlardagi muammolar esa:

- Oiladagi aka-uka, opa-singillar urtasidagi uzaro yoshi urtasidagi tafovutlar;
- Oiladagi aka-uka, opa-singillar urtasidagi ma'naviy, ruxiy va kasbiy farklar;
- Oiladagi farzandlar urtasidagi meros talashishlar;
- Yakin tengdoshlar va karindoshlar urtasidagi uzaro ichki nizolarning kelib chikishi (ammakivachchalar, karindoshlar urtasidagi kuda-andachilik va x.k.)

Bugungi kunda o'zbek oilalarida vertikal va gorizontal munosabatlarga OAV larining ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, turli kinoseriallar va kinofilmlaridagi ota-onaga xurmat va xurmatsizlik farzand tarbiyasiga ta'siri; didektiv, vaxshiylikni targib kiluvchi kinofilmlarda inson ongiga tugridan-tugri yovuz maksadlar ta'sir kursatib oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir kursatadi; ma'naviy, ma'rifiy, axlokiy kursatuvlar orkali oilada ota-onaga, aka-ukaga, opa-singillarga pozitiv munosabat shakllanadi.

O'zbek oilalarida vertikal va gorizontal munosabatlarni buzuvchi obektiv va subektiv omillar mavjud. **Obektiv omillar:** oiladagi bekaror muxit; oiladagi iktisodiy nochorlik; maxalladagi bekaror muxit (ugrilar kup yashaydigan maxalla, jinoyatchilar, foxishalar kup istikomat kiladigan maxalla). **Subektiv omillar:** farzandsizlik; surunkali bemorlik xolatlari; egoistik tuyguning kup namoyish bulishi; savodsizlik; beparvolik; stigma xolatlari (nuksonlar, pes bulishi, nogiron bulishi va x.k.).

Avvalo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalla timsolida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Mahalla kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Ma'lum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki o'zaro hamjihatlik, ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy meyorlar, urf-odatlar, an'analar, umumiy manfaatlar va o'ziga xos majburiyatlar bilan ham bog'langandir. Mahalla hayotning jamoa bo'lib yashash tarzi jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan o'zini-o'zi boshqarish tizimini keltirib chiqardi. Shu asosda mahallaga uning xududida yashaydigan aholi tomonidan saylab qoyiladigan oqsoqol yetakchilik qilgan.

Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, mahallalar mavqeini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar ado etildi. Buni bugun mahallalarda o'z ijrosini topayotgan yil dasturi, bajarilayotgan xayrli amallar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Albatta, bunday samarali say-harakatlarda homiylar, davlat va nodavlat tashkilotlari mutasaddilari bilan bir qatorda, "Mahalla" jamg'armasining respublika, hududiy bo'lim va bo'linmalari boshqaruvlari, shuningdek, fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollar), maslahatchilar, mahalla huzuridagi qator komissiyalar a'zolari, umuman, yig'in faollariyu kayvonilarining alohida hissasi bor. Jamg'arma va fuqarolar yig'inlari mutasaddilari tomonidan mahallalarda, oilalarda tinch-totuvlikni, osoyishtalikni ta'minlash, xonadonlarda ijtimoiy sog'lom muhitni qaror toptirish, yoshlar o'rtasida turli yot illatlarning oldini olish, namunali oila boshliqlari, nuroniylar faolligini oshirish borasida katta ishlar qilinayotir. Ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlardagi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish, o'rganish va ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish maqsadida respublika miqyosida har yili turli ko'rik-tanlovlar, bayram tadbirlari o'tkazib kelinyapti. Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda fidoiy hamyurtlar mehnatini munosib baholash, rag'batlantirish, qolaversa, mahalladoshlar uchun bayram tadbirini tashkil etish maqsadida har yili viloyat, shahar va tuman markazlarida an'anaviy "Mahalla kuni" tadbirlari ko'tarinki ruhda nishonlanib kelinayotir. Avgust oyining birinchi haftasida tashkil etiladigan ushbu bayram saylini Mustaqilligimizning o'n

to‘qqiz yillik shodiyonasi arafasida o‘tkazish rejalashtirilgan. Bu borada “Mahalla” jamg‘armasi respublika boshqaruvi hamda uning hududiy bo‘lim va bo‘linma boshqaruvlari tomonidan chora-tadbir rejalari ishlab chiqilib, uning ijrosini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotir. Bayram saylini har tomonlama ko‘tarinki ruhda tashkillashtirish maqsadida joylarda fuqarolar yig‘inlari mutasaddilari ham jiddiy tayyorgarlik ko‘rishmoqda. Yaqin kunlarda poytaxtimizda ushbu shodiyona keng nishonlanadi. Mahallada ko‘pni ko‘rgan qariyalarni, nuroniy otaxonu onaxonlarni hamma hurmat qiladi, ularning tajribasidan yoshlar ibrat oladi. Qizlarimiz momolardan ro‘zg‘or ishlarini yuritish, kattayu kichik oldida, mahalla-ko‘yda o‘zini qanday tutishi lozimligini, o‘zbek ayoliga xos ma‘naviy qadriyatlarni o‘rganadi. Ayni shu maqsadda olib borilayotgan izchil tadbirlar, ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari aholi hamjihatligini mustahkamlashga xizmat qilayotir.

— “Mahalla kuni” bayram tadbirini o‘tkazishdan maqsad, — deydi “Mahalla” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Rahmatilla Sheraliyev, — aholini birdamlikka, hamjihatlikka da‘vat etish, ularning biri-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirish, qolaversa, mahallalarda istiqlolimizning o‘n to‘qqiz yillik shodiyonasi arafasida “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson” g‘oyasini targ‘ib-tashviq etish orqali inson omili, sha‘ni, qadr-qimmati naqadar buyukligini aks ettirishdir.

Ta‘kidlash joizki, “Mahalla kuni”da fuqarolar yig‘inlarida an‘anaviy tarzda o‘tkazilib kelinayotgan “Fuqarolar yig‘inlarining eng namunali diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi”, “Fuqarolar yig‘inlarining eng faol Yarashtirish komissiyasi”, “Qadriyatlar beshigisan, aziz mahallam” shiori ostidagi “Mahallam tarixini o‘rganaman” kabi qator respublika ko‘rik-tanlovlarida o‘zining bilimdonligi, ilg‘or ish tajribasi bilan g‘oliblikni qo‘lga kiritgan faol mahalla oqsoqollari, maslahatchilar, komissiya a‘zolari, bir nechta nominatsiya g‘oliblari jamg‘arma tomonidan rag‘batlantiriladi.

Shuningdek, “Mahalla kuni” bayrami arafasida “Mahalla” jamgʻarmasi respublika boshqaruvi tomonidan kam taʼminlangan, boquvchisini yoʻqotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga bir boshdan qoramol hadya etish rejalashtirilgan. Darhaqiqat, Mustaqilligimizning 19 yilligi munosabati bilan “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson” mavzusida barcha mahallalarda “Mahalla kuni” bayram tadbirini koʻtarinki ruhda oʻtkazish bilan birga, kam taʼminlangan oilalar farzandlarining respublikamizdagi tarixiy va diqqatga sazovor joylarga bepul sayohatini tashkil etish, “Saxovat”, “Mehribonlik” va “Muruvvat” uylaridagilarning holidan xabar olish, ularga moddiy va maʼnaviy yordamlar koʻrsatish, joylarda obodonlashtirish, atrof-muhitni tartibga keltirish, hashar yoʻli bilan yolgʻiz qariyalarning turarjoylarini taʼmirlab berishdek xalqimizga xos xayrli ishlar amalga oshiriladi.

Mahalla shiorlari

Bagʻrikenglik, oʻzaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar mahalla muhitida kamol topadi. Shu maʼnoda mahallani oʻzini-oʻzi boshqarish maktabi, demokratiya darsxonasi deb atash mumkin.

Islom Karimov

Mahalla nufuzini koʻtarish nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy balki bu – siyosiy, tarbiyaviy, ulkan maʼnaviy masaladir.

Islom Karimov

Mahalla nufuzini koʻtarish nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu – siyosiy, tarbiyaviy, ulkan maʼnaviy masaladir.

Islom Karimov

Oʻzini oʻzi boshqarish organlari – bizning kelajagimiz.

Islom Karimov

Agar mahalla jamiyatimizda munosib o‘rin egallasa, agar mahallada tinchlik va osoyishtalik bo‘lsa, hamma narsaga kuchimiz yetadi .

Islom Karimov

Mahalla jamiyat poydevori, taraqqiyot beshigi va xalq tayanchidir !

Mahalla elning or-nomusi !

Mahalla yurt boyligi !

Mahalla xalq tayanchi !

Mahalla ota-onang, sulolang !

Mahalla Vatan ichra vatandir !

Mahalla – qadriyatlar beshigi !

Mahalla – mehr-muruvvat maskani !

Mahalla – ma’naviyat va ma’rifat maskani – tarbiya o‘chog‘i.

**Mahalla – fuqarolik jamiyati
instituti.**

Mahallaning ertangi kuni o‘zimizga bog‘liq !

Mahallang tinch, yurtning tinch.

Karvonsiz yo‘l bo‘lmas, oqsoqolsiz el bo‘lmas.

Mahalla Vatan ichidagi vatandir

Mahalla – ijtimoiy himoya maskani

Mahalla – ota-onang deyishar ekan, demak ma’naviyat chindan ham mahalladan, oiladan, ota-ona tarbiyasidan boshlanadi.

Mahallaning obodligi, ozodaligi, mahalla ahlining did farosati, yuksak madaniyat ko'zgusidir.

Maxalla turmush madaniyati yuksaltirish borasida shaxsan Prezidentimiz, xukumatimiz o'ta talabchanlik bilan ish yuritayotganligini ko'rib quvonchlarga to'lasan kishi. Darxaqiqat, Prezidentimiz I.A Karimov bosh-qosh bo'lishi natijasida unitilgan yoxud unitila boshlagan o'nlab kadriyatlarimiz tiklanib, o'rin-o'rniga quyila boshladi. Birgina maxalla-kuylar kadriyatiga, ularning obro'u e'tiborini kutarish, faoliyatlarini jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan bagoyat ibratli ishlarni olib kuraylik. Yurtboshimiz I.A.Karimov kayerga bormasin maxalla kishilaridan kul ochib duo kilishlarini surashi, vakti-vakti bilan maxalla oksokollarini yigib, maslaxatlashishida chukur ramziy ma'no bor. Bu xech shubxasiz maxalla kuy kadriyatlarini e'zozlash, kadrlash va ardoklashning ibratli namunasidir. Maxalla-kuy bilan boglik kadriyatlar xakida suz borganda, prezidentimiz bir fikrlarini keltirish urinlidir: "Maxalla orkali kup ishlarni kilish mumkin. Yoshlarga munosib tarbiya berishda, kadriyatlarimizni tiklash va ommalashtirishimizda men sizdek tabarruk oksokollarga ishonaman va tayanaman. Bu keltirilgan kuchirmadagi "Men sizdek tabarruk oksokollarga ishonaman va tayanaman iborasiga e'tibor bersak, unda xalkimizning" iborasiga e'tibor bersak, unda xakkimizning " Kari bor uyning zari bor", " Karing bor-boring bor" kabi keksalarimizning xayotda tutgan urinlarini, yoshlar tarbiyasidagi mavkelari, umuman keksa avlodning kadr-kimmatini xam uz ifodasini topgan, deya olamiz. Prezidentimiz nigoxlari tushgan, nazar va e'tiborlari bilan karalgan unlab maxallarimiz faoliyatida tub burilishlar yuz berib, ular yurtimiz tayanchi, xalkimiz ovozig'a aylana boshladilar. Darxakikat, kadim-kadimdan maxalla tinch bulsa-yurt tinch bulgan, maxalla osoyishtaligi-el osoyishtaligini ta'minlagan. Yukorida kayd etganimizdek, maxalla odob, ibrat va kadriyatlar namuna gushasi xisoblangan. Zero, maxalla tinch bulsa, el-yurt tinch bulibgina kolmasdan, iktisodiy, siyosiy va madaniy, tarbiyaviy ishlar xam maksadga muvofik buladi. Xa, maxalla moziydan

axlokiy, ruxiy tarbiya uchogi urganilgan meyor – mezon ulchovi bulganu, ammo yozilmagan kitobdir.¹³

Maxalla turmush madaniyati va bu maksadda amalga oshirilayotgan ommaviy tadbirlarning cheki yukligini biz teran tushinib yetdik . Va nixoyat , bu jamiyatimizning asosiy poydevori xisoblanmish Vatan ostonasida ijtimoiy xayotining noyob sarchashmalari , shark xalklari tafakkurining noyob maxsuli sifatida unda yashovchi axoli uchun uz - uzini boshkaruv tizimiga , eng muximi , turmushning yozilmagan , lekin xayotiy tajribalarda sinalib , insoniylikni sharaflaydigan , kadriyatlarni , ilgor ana'alarni e'zozlaydigan yurt tinchligi , obodonligi , jamiyat tarakkiyotiga va insonni shakllantirishga xizmat kiladigan nizomlarga amal kilib yashashni majburiyatga aylantirib borgan , shu asosda maxalla asrlar osha axlokiy – ma'naviy tarbiyani ogishmay amalga oshiruvchi xalk dorilfuninii vazifasini utab kelmokda .

Oilaviy ajralishlar deyarli yuk darajada, taxminan 1000 kishiga 0,9 marta kursatkichga ega ekan. Tipik kishlok oilasi 5,5 kishidan tarkib topgan. Uy xujaliklari kupchilik bir tom ostida turli avlodlarga mansub bir nechta karindosh oilalarni birlashtirar ekan. Albatta bunday xolat fakat bizning xalkimizning umuminsoniy kadryatini tashkil etadi desak tugri buladi. Jaxonning boshka xududlarida yashovchi xalklarda xam shunday merosiy udumlar mavjudmikan. Tugri, uzbek oilasining yer yuzidagi boshka oilalarga uxshash tomonlari kup va shu bilan birga uning uziga xos jixatlari xam mavjuddir.

Oila juftlik konuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning uzi yoxud bir ayolning uzi oila bula olmaydi. Oila eru-xotindan tashkari urning ota-onasi ya'ni kaynota va kaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat kup buginli xonadondir. Uning xar bir a'zosi uz mavkeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga buysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Xurmatli talaba,

¹³ Malik Murod "O'zbek qadriyatlari" ..T., "CHo'lpon". 1995 y

uzbek oilasi turmush madanyati xamda bola tarbiyasi xakida biz mashgulotlarimizning birida xam ta'riflar berib utgan edik.

Oila inson uchun mukaddas dargox, insonlarning tabiiy, iktisodiy, ijtimoiy, xukukiy va ma'naviy munosabatlari zamirida yuzaga kelgan. Oila takdiri rasmiy tus olishdan boshlanadi, shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-ona sifatida farzandlaru kavmu-karindoshlar, maxalla-kuy, kiskasi, jamiyat oldida, uz navbatida farzandlar xam uz ota-onalari va el oldida ma'suliyat sezaдилar va burchli ekanliklarini akl-ongi bilan chukur xis etib yashaydilar. Oila jamiyat nizomlari asosida ashasa-da, oilaviy munosabatlar nisbatan mustakil xodisadir. Oila ishlariga boshkalarning aralashuviga xakki yuk. shu ma'noda oila jamiyatning mukaddas va daxlsiz mustakil muxtoriyatidan iborat saltanatdir.

Buyuk uzbek adibi Abdulla Avloniy yozgan edi: "Kishini kecha va kunduz ishlatadurgan narsa Vatan va bola-chakalarning mexru-muxabbati emas-mu? Ma'lumki, Vatansiz oila, oilasiz Vatanbulmaydi, jamiyatdagi bu ikki narsa bir biri bilan uzviy boglanadi va biri ikkinchisini tuldiradi". Shu ma'noda oila - Vatan ichra Vatan, mexnat tufayli obod va ozod muxtor gusha bulib, Vatan bagrida, Vatan nazari ostida, Vatan ximoyasida barkarorlik kasb etadi. Bu esa, uz navbatida, oilaning kushnichilik, maxalladoshlik munosabatlarida, shuningdek, maxalla-kuy amal kilayotgan tuy-yu ma'arakalarga katnashish, ularga xos rasm-rusmlar va urf-odatlarga rioya etishni zaruriyatga aylantiradi, ommaviy xasharlar, sayillar va bayramlar kabi an'analarda ishtirok kilishni ma'naviy majburiyatga aylantiradi. Bu jarayon chukurlashgan sayin oila xam mustaxkamlanib boradi, piravord-okibatda millat yoki xalkka daxldor oila iftixori yuzaga keladi va shakllanadi. Xalkimizda kurinadigan oilaparvarlikning tom ma'nodagi asoslari shularda zuxur topgan. Shunisi kuvonarliki, xukumatimiz tomonidan jamiyat dikkat-etiborini, uzbek milliy oilasini mustaxkamlashga karatilgan kator chora-tadbirlarning belgilanayotganligi va amalga joriy etilishi xam aslida xuddi shu uzbekona oilaparvarlik asoslarini xar taraflama rivojlantirish negizida soglom va bakuvvat demokratik jamiyatni barkaror etish maksadini kuzlaydi.

Ijtimoiy integratsiyaning universal mexanizmi - maxalla bulib, u kushnilarni xamjixatlik va xalk an'analariga sobit izdoshlik asoslarida birlashtiradi. Ularning milliy yoki diniy mansubligining axamiyati yuk. Maxalla - Buyuk ipak yulidagi Movarounnaxr shaxar madaniyatining ming yillik maxsuldir.

Zamonaviy yangilanayotgan maxalla fukarolarining ijtimoiy uzini-uzi boshkarish silsilasida asosiy bugindir. U - milily an'analar saklovchisi bulib, millatidan kat'iy nazar insonlarning madaniy xulk-atvori mezonlarini namoyon etadi va yaratadi. Maxalla xududida, odat buyicha, makta, chiyxona, masjid, maishiy xizmat korxonalari, nonvoyxona, uspirinlar uchun sport maydonchalari faoliyat yuritadi. Joylardagi shaxar, tuman, xokimiyatlariga karashli minglab maxallalarning va shu bilan birga bu milliy gushalarda e'tiborga loyik bulgan ommaviy tadbirlar olib borilayotganligi kup xollarda diqqatni uziga bortadi. Misol tarikasida 8-sonli "Ma'rafat", 10-sonli "Shodiyona", "Sabzar", "Bobur" va boshka yuzlab maxalla kumitalarining fukarolar bilan olib borayotgan ijtimoiy xayotning barcha soxalariga xos bulgan tadbirlarning utkazilishi, nochor, karovsiz kolganlar bilan ishlash, kup bolali oilalarga muruvvat kursatish, kariyalarni kadrlash, yoshlar xamda maktab ukuvchilari uchun sport maydonchalarini tashkillanishi milliy bayramlarning nishonlanishi va unlab xayirli tadbirlarning uz vaktida muntazam utkazilib turishi maxalla axlining madaniy-ma'rifiy turmush tarziga katta safarbarlik kasb etib kelmokda. Bunday misollarni yurtimizning barcha xudud xamda chekka kishloklarida xam kuzatishimiz mumkin.

Yoshlarimizda maxalla turmush madaniyatidagi e'tiborga molik bulgan milliy an'analarni shakllantirishga, ularda etnik munosabatlar xamda milliy madaniyat asoslarini chukur bilishga bulgan karashlarini mukammallashtirishga, ularning etnooongida xozirgi maxallachilik an'alarining zamonaviy ruxda ancha takomillashib, oilaviy-maishiy munosabatlarning mustaxkamlanishi, maxallada barcha tadbirlar: tuy-tomoshalar va ma'rakalar xalkimizning bir-birbirlariga xamdard va xamsoya bulib, uzaro yordam berib kullab-kuvvatlashlari kabi, katta-kichiklikni xurmat kilish, ayniksa yoshi katta kishilarni e'zozlash, oilaviy

munosabatlarini uz vaktida bajarish, umumiy tartib va odob-axlok koidalariga rioya qilish, kuni-kushnichilik an'analarini ijobiy axamiyatga ega ekanligini chukur xis etish kabi umuminsoniy kadriyatlar takomili asosida shakllanib borishlarini ta'minlashga xarakat kilinmokda.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, yoshlarimiz ongida kuni-kushnichilik, maxalladoshlik tushunchalarining tub ma'nosini ochib berishimiz kerak. Zero, bunday an'ana bizning mustakillik davrimizga kelib juda xam kengayib ketdi! Darxakikat, xozirgi kunda u nixoyatda chukur ijtimoiy ma'no kasb etib, shaxar bilan shaxar, kishlok bilan kishlok, mamlakat bilan mamlakatlar urtasida chinakam kuni-kushnichilik yuzaga keldiki, uning okibat natijalari – uzaro yordam, iktisodiy xamda siyosiy bir-birini kullab-kuvvatlash, xalklar tinchligi va mustakilligini saklab turishlik darajasiga kutarildi. Bu masalaning sotsial-ijtimoiy, tomoni mavjuddir.

Muayyan kishilar urtasidagi kuni-kushnichilik munosabatlariga kelganda xam shuni aytish kerakki, uning xam ma'nosi kengayib, xilma-xil kirralari paydo buldi va bulmokda. Bizning davrimizga kelib kuni-kushnichilik, yukorida kayd etganimizdek, uzaro tenglik, begaraz xamkorlik, bir-biriga kumaklashish, u yoki bu masalani xamkorlikda xal qilish, shuningdek, tom ma'noda baynalminal xarakter kasb etdi. Bunga Respublikamiz istiklolni kulga kiritib, mustakil bulgach, kushni mamlakatlar bilan boshlangan kuni-kushnichilik yakkol misol bula oladi.

Barchamizga ma'lumki, xozirgi davr dunyoda goyaviy karama-karshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan xam kuchlirok bulib borayotgan davrdir. Shu bilan birga, uzlarining mafkuraviy vositalari orkali uz ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va xarakatlar kuchayib bormokda. Millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irkchilik va diniy ekstremizm mafkuralari betinim xarakatda uzlarining mudxish niyatlari uchun barcha imkoniyatlarini ishga solmokdalar. Xalkaro terrorizm xavfi butun insoniyatga taxdid solmokda. Bunday vaziyatda uz mustakil fikriga sobit, e'tikodiga, mustaxkam iroda va dunyokarashiga ega bulgan insonlargina uz Vatani

xalki manfaatlarida yonib yashashi va sadokatli mexnat kilishi bilan uzligini anglab yetishga intilmogi kerak. Ma'naviy kadriyatlarimizni ilm-fan tarakkiyoti bilan boyitib borish, uzligimizni chukurrok anglash, milliy goya va istiklol mafkurasi tamoyillarini xalkimizning kalbi va ongiga singdirish, mukaddas dinimiz va utmish tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maksadalarda foydalanishga yul kuymaslik barchamizning mukaddas burch va vazifalarimiz katorida bulishi zarur.

2.2. Shaxs ma'naviyatida qadriyatlarning muhim ahamiyatga egaligi.

Yangi jamiyat barpo etish jarayonida, eng avvalo, **ma'naviy qadriyatlarni** to'g'ri baholay olish lozim. Biror-bir qadriyatga baho berilar ekan, uning mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ahloqiy asoslarini mustahkamlashga qay darajada hissa qo'shishi, xalqimizning umumjahon ijtimoiy taraqqiyotining faol subektiga aylanishiga xizmat qilishi bosh mezon bo'lishi kerak.

Milliy qadriyatlarga, jumladan, madaniy merosga ilmiy asosda to'g'ri yondashishning asosiy tamoyillariga xos mezonlar – insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchilik va taraqqiyparvarlikdir. Bu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik g'oyalari mujassamlashgan. Ular mohiyatan umuminsoniy xarakterga ega bo'lsa-da, har bir tarixiy davrda muayyan xalqlarning ehtiyojlarini yuzaga chiqaradi va ularni qondirishga xizmat qiladi. Shu bois ularning zahirida mujassam bo'lgan umuminsoniylik mohiyati, milliy ehtiyojlarni muayyan milliy shaklda ifodalab va o'z mazmunini ularga moslashtirgan holda namoyon bo'ladi. Mazkur mezonlarga nafaqat milliylik va umuminsoniylik, balki tarixiylik ham xos. YA'ni, ular shaklan va mazmunan qotib qolgan andozalarga mos holda emas, balki davr talablariga, jamiyat oldida turgan yangi vazifalarga mutanosib tarzda boyib, takomillashib boradi¹⁴.

Milliy qadriyatlar tizimining inson ogidagi ijtimoiy makomini oshirishdan kuzatilgan pirovard maqsad inson hayotini muayyan ma'naviy maromlarda muvofiklashtirish, har bir shaxsning insoniy potensialini tularoq yuzaga chikazishdan iboratdir. Insoniy potensial omilini faollashtirishda mehr-

¹⁴ Qarang: Eng katta boyligimiz – tinchlik va barqarorlikni asraylik. AkademiY. T.: 2006 y. 19 bet.

muruvvatning roli kattadir. Mehr omili milliy qadriyatlarimiz mazmun-mohiyatining negizini tashkil etadi.

Zero, yurtboshimiz aytganlaridek «Bu boradagi eng asosiy vazifa jamoatchiligimiz, odamlarimizda, avvalo, yoshlarimiz qalbida mehr va muruvvat tuygʻusini yanada yuksaltirishdan iborat. Jamiyatning koʻmagina muhtoj boʻlgan har bir inson va oilaga, birinchi navbatda, nogironlar, yolgʻiz qariyalarga, bokuvcisini yoʻqotgan odamlarga har tomonlama gʻamxoʻrlik va yordam koʻrsatish barchamizning muqaddas burchimiz boʻlmogʻi kerak.

Bir soʻz bilan aytganda, hech kim jamiyatimizda oʻzini yolgʻiz sezmasligi, hech kim eʼtibordan chetda qolmasligi lozim.

Xalqimizga xos boʻlgan mehribonlik, bagʻrikenglik kattaga hurmat, kichiklarga izzat kabi ezgu fazilatlarni aslo unutmasligimiz, ularni nafaqat asrab-avaylash, balki kundalik amaliy ishlarimiz bilan boyitib va mustahkamlab borishimiz»¹⁵.

Xalqimizga xos boʻlgan muhim anʼana, yaʼni odamlarimizning azal-azaldan jamoa boʻlib yashab kelganligi oʻz-oʻzini boshqarish borasida boy tarixiy tajribalarimiz borligidan dalolat beradi. Jamoaviylik zamirida oʻz-oʻzini boshqarishning barcha jihatlari roʻy-rost namoyon boʻlib, uni regulyatsiya qilish uslubi qishloq, mahallaning saylangan obroʻ-eʼtiborli shaxslari, urugʻ-qavm yetakchilari tomonidan amalga oshirib kelingan. Jamoaviylik hodisasining mazmunida savob- sahovat ishlarini amalga oshirish, ezgulikka xizmat qilish, umumiy xavf, tabiiy ofatlar, tashqi tazyiqlarga qarshi turish jarayonlarida odamlarning yalpi harakatini yuzaga chiqarish tamoyili oʻrin olgan.

Urf-odatlar va anʼanalarning hayotimizda barqaror amal qilish mahalla omiliga koʻp jihatlardan bevosita bogʻliqdir.

Milliy anʼanalarimizning oʻziga xosliklari haqida gap borar ekan, ularning butun jahon eʼtirof etgan, yurtimizga kelgan har bir kishi oʻzi guvoh boʻlgan oʻzbek

¹⁵ Qarang: Oʻzbekiston ovozi gazetasi, 10 fevral 2004 yil.

oilalari va mahallalarining yashash qonuniyatiga aylangan, asrab-avaylash muqaddas burchimiz bo'lgan ma'naviy asoslarining ba'zilari haqida faxr bilan to'xtalib o'tsak, arziydi.

Tug'ilgan joyiga mehr, vatanparvarlik. O'zbekning vatanparvarligi kindik qoni to'kilgan yerga mehr qo'yishdan boshlanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, turkiy ajdodlarimiz ko'chmanchilikni sevishib, Xitoydan to Fransiya-gacha bo'lgan xududda shiddatkorligi, jasurligi, quyunday kelib ketishi bilan mashhur bo'lishgan. Mashhur Xitoy devorini ham imperatorlar turkiylar hujumlaridan saqlanish uchun qurishgan ekan. Biroq asrlar davomida turkiylarning bir avlodi bo'lgan xalqimiz o'troqlashuvga shu darajada odatlanib qoldiki, "Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi", "O'zga yurt-da shoh bo'lguncha, o'z yurt-ingda gado bo'l" degan vatanparvar millatga aylandi. Bu qoloqlik emas, milliy madaniyatning yuksak rivoji natijasidir.

"O'zbek zoti borki, o'tirgan joyini sovutgisi kelmaydi. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga xushi yo'q"¹⁰.

Xalqimizning bu odati oila mustahkamligi, el birligi, mahallalarning barqarorligini ta'minlashda asosiy ahamiyat kasb etib keldi va shunday bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun o'zbek moddiy jihatdan qiynalsa ham, qancha daromadli bo'lmasin, olishga ketib oilasidan ajrashni yoki oilasi bilan farovon mamlakatga ketishni istamaydi va uning bu odati vatanparvarlik miqyosigacha o'sib borgan, avloddan-avlodga o'tib, sabrbardosh tuyg'ularini kamol toptirgan.

«Bizda ota-bobolardan meros ajoyib fazilat bor: mahalliy millat topganini, avvalo, uy qurishga sarflaydi. Ertaga o'g'limni uylantirsam, qayga joylayman deb tashvish chekadi»¹¹.

¹⁰ **I.A.Karimov.** O'zbekiston: milliy istiqlo-l, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1996, 1-tom, 12-bet.

¹¹ **I.A.Karimov.** Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1996, 2-tom, 274-bet.

Uy tashvishi – vatan, farzand tashvishi esa, kelajak uchun qayg‘urish demakdir.

O‘zbekona bag‘rikenglik va soddalik. Ona yurtimiz O‘zbekiston haqida so‘z borar ekan, serquyosh, xalqi zahmatkash, bolaparvar, mehmondo‘st, bag‘rikeng, degan ta’riflarni ko‘p qo‘llaydilar. Ta’riflar ichida jannatmakon sifati ham borki, bu haqda shunday rivoyat qiladilar:

Olloh yer yuzidagi barcha xalqlarga, bu mamlakat seniki, bu mamlakat seniki, sening ajdodu avlodlaringniki, deb zamindan vatan ajratib beribdi. O‘zbeklarga navbat kelganda qarasaki, joy qolmabdi. Shunda tangri bag‘rikengligimiz uchun jannatning bir qismini olib, bizga vatan qilib bergan ekan.

Yurtimizda turli din, mazhablarga mansub 130 dan ortiq millat vakillarining tinch-ahil yashashi, o‘nlab Milliy madaniy markazlar faoliyat ko‘rsatayotganligi bu bag‘rikenglikning eng oddiy misolidir.

O‘zbekona mehmondo‘stlik. Dunyoda har bir xalqning o‘ziga xos mehmondo‘stlik odatlari bor, biroq bu borada bizning xalqimiz oldiga tushadigani bo‘lmasa kerak. «Mehmon otangdan ulug‘», «Mehmon - atoyi xudo», «Mehmonning yoshu qarisi bo‘lmaydi» kabi asrlar bo‘yi yaratilgan maqollar xalqimiz bu fazilatining juda qadimiyligi ifodasidir.

Biz bu dunyoda har bir insonni mehmon deb biladigan tug‘ma faylasuf xalqimiz. Shuning uchun chaqaloqtug‘ilganda, dunyoga yangi mehmon keldi, deymiz. O‘zbek oilasi o‘zi haftalab go‘sht yemasligi mumkin, ammo mehmon uchun albatta, qaznog‘ining bir chetida go‘sht saqlaydi. Mehmon uchun albatta to‘n topiladi. Osh pishiriladi. Suhbatiga qo‘ni-qo‘shnilar chaqiriladi. Shunday bir rivoyat bor:

Bir musofir o‘zbek xonadoniga mehmon bo‘libdi. Uy ega-larining izzat-ikromini ko‘ribdi. Ertasi kuni yo‘lga tushib, qishloq chetiga yetganda, qishloqdan

yig'i-sig'i ovozi eshitilibdi. Yo'lovchi hayron bo'lib, qarshisida kelayotgan kishidan so'raganda, u odam, kecha siz mehmon bo'lgan xonadonda, bir kishi vafot etgan edi, deb javob beribdi.

Bu bir rivoyatdir. Ammo o'zbekning qanday mehmondo'stligini bilgan odam unga ishonadi. Xalqimizning mehmondo'stlik odatlari ham g'oyat ajoyib, g'oyat rang-barang. Xorazmda mehmon tongda mahalla kezsa, ko'cha yuziga qurilgan tandirlarni ko'radi. Non yopayotgan ayollar: «Non-ning tuzini totib keting», - deb uyga taklif qilishadi. Chunki xorazmliklar qadimdan tandirdan chiqqan dastlabki ikki nonni yo'lovchi rizqi deb hisoblashadi. Yo'lovchi bo'lmasa, beva-bechoralarga chiqarishadi. Issiq nondan berilgan sadaqa el-yurtga kelayotgan balo-qazoni qaytarib, oilani ko'zu suqdan asrashiga ishonishadi.

Farg'onaliklar choyxonaga yetaklashadi. Har kungi choyxona xarajatlarini bir qo'shni o'z zimmasiga oladi. Buni o'zbek bo'lmagan mehmon bilmaydi ham. Mezbonim rosa saxiy ekan, deb ketaveradi.

Surxon vohasida mehmon uy egasining qo'ni-qo'shnilari, qarindoshlari o'rtasida talash bo'lib ketadi. Xullas, vohalarimiz mehmondo'stlikda mehmon talashgan aka-ukaday bir-biridan qolishmaydi.

Ota-onaga ehtirom, kattaga hurmat, kichikka izzat.

Ota-onaga cheksiz ehtirom, ular kim va qanday bo'lishmasin, izzat-hurmatini joyiga qo'yish o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan odatdir.

O'zbeklar bag'ri keng xalq bo'lgani uchun kishining, ayniqsa u yosh bo'lsa, uncha-muncha gunohini kechib yuborishi mumkin. Biroq ota-onasiga gap qaytargan, qo'l ko'targan farzandlarni aslo kechirmaydi. Qancha-qancha shahzodalar o'tgan va ularning nomini xalqimiz esga olmasa-da, Ulug'bekka qarshi fitnaga qo'shilgan o'g'li Abdulatifni hozirgacha xalq «padarkush», deb qarg'aydi.

Bugungi kunda turli diniy ekstremistik oqimlar to'riga ilinib, ota yurti, ona xalqiga qo'l ko'targanlar ham ana shunday padarkushlardir. Dunyoda jinoyatchi uchun eng oliy jazo o'limdir. Ota-onaning «oqqilishi» o'zbeklarda o'limdan ham ortiq jazo hisoblanadi. Bizda elparvar rahbarlar, mahalla raisi va raisalarni el otasi, el onaxoni deydilar. Bu juda oliy unvondir.

Kattalarga hurmatni O'zbekistonda har qadamda, har daqiqada ko'rish mumkin. Dasturxon to'ri doim kattalarniki. Ma'rakalarda yo'l boshlovchi doim kattalar. Har ishda oqsoqollar fikriga amal qilinadi.

Shuningdek, o'zbeklar yoshlarni juda ayaydigan, ular xato qilsa, xatosini ko'rsatib, «Beayb Parvardigor», deb kechirishni qonun qilib olgan xalqdir. Ko'p uzoqqa bormay, misol sifatida, Prezidentimizning diniy-ekstremistik oqimlar ta'siriga berilgan, ammo hali jinoyat kilishga ulgurmagan yoshlarni avf etish haqidagi qarorini ko'rsatish mumkin.

Haqiqatan ham beayb Parvardigor. Bu dunyoda hech kim xato qilmayman, deb va'da bera olmaydi. Buni xalqimiz ham, Yurtboshimiz ham juda yaxshi biladi va shunday deydi: «Shu borada, kimki o'zining xalqi, yurti oldidagi mas'uliyatini, kerak bo'lsa, burchini yaxshi tushunib, militsiyaga keladimi, prokuraturaga keladimi, yo'l qo'ygan xato va qilmishlarini tan olib, xulosa chiqarib, kechirim so'rasa va yana bitta sharti ota-onasi, o'zi yashaydigan mahalla shunga kafolat bersa, Prezident sifatida mana shu minbardan turib aytaman - bunaqalarni kechiramiz. Biz hech qachon xalqimizga, aholimizga tazyiq qilmaganmiz va qilmaymiz»¹².

Biz ota-onani eng ulug' zotlar sifatida ulug'lab, e'zozlab kelgan, yoshlarni avaylab, ajdod-avlodlarimiz shu ruhda tarbiya topgan, farzandlari tarbiya toishi zarur bo'lgan xalqimiz.

¹² **I.A.Karimov.** Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuchqudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. —T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2004, 19-bet.

Qo'shnichilik, jamoaviylik. Dunyoda qo'shnisiz odam ham, oila ham yo'q. Biroq o'zbek qo'shnichiligi insoniyat tarixida butunlay o'ziga xos aloxida milliy hodisadir.

Jahonning turli mamlakatlarida davlat tashkilotlari, sudlar hal etadigan ko'plab oilaviy, iqtisodiy, axloqiy muammolarni bizda qadimdan qo'shnilar, mahalla tinch yo'l bilan hal qilib kelgan.

Prezidentimiz va hukumatimiz ko'pgina davlat tashkilotlari vakolatlarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish siyosatini amalga oshirishda xalqimizning ana shu milliy an'analaridan kelib chiqishgan.

O'zbeklarda oilada go'dak tug'ilsa, eng avval qo'shnilar chiqishadi. Beshik to'y, soch to'y, muchal to'y - barcha to'y-ma'rakalarda qo'shnilar xizmatda. Arafalarda qo'shni-qo'shniga osh chiqarishi - qonun. Mehmon kelsa ham qo'shni bilan. Kelin bo'lmishni ham qo'shnilardan surishtirilgach, sovchilar yuboriladi. Uy olishmoqchi bo'lganlar uchun qo'shnilarning kimligi birinchi darajali ahamiyatga ega. Shifoxonaga tushib qolganlar ham qo'shnilar yo'qlorida. Eru xotin urushsa, qo'shnilar - hakam va h.k.

O'zbeklarning qo'shnichilik munosabatlari shu qadar kengki, biz qo'shnilar bilan doimiy munosabatlarsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Aslida mahalla degani ham oilalar va ular o'rtasidagi qo'shnichilik munosabatlaridan iborat. Bizning eng ezgu an'anala-rimizdan biri qo'shnichilik asosidagi jamoaviylikdir. Shu jihatdan qaralganda, dunyoda hech bir xalqda hashar kabi odat bizdagidek bo'lmasa kerak. «Ko'pning kuchi - ko'l», «Hashar - elga yarashar», - deydi xalqimiz.

Haqiqatan, bir kishi, bir oila oylab bitira olmagan ishni qo'ni-qo'shnilar hashar yo'li bilan bir kunda bitirib qo'yishadi. Topsangiz, bir piyola choyingizni ichib, topmasangiz ham ishlab, ham rahmat, deb ketaveradi. Bu ezgu odatimizning mustaqillik yillarida mamlakat miqyosida an'anaga aylanib borishi ham milliy qadriyatlarimizning beqiyosligini bildiradi.

Jumladan, «Obod mahalla yili»da «Navroʻz» va «Mustaqillik» bayramlari munosabati bilan oʻtkazilgan 15 martdagi umumxalq hasharida 12 million 416 ming vatandoshlarimiz ishtirok etib, katta miqdordagi obodonlashtirish ishlaridan tashqari «Mahalla» jamgʻarmasi, uning QQR, viloyatlar va Toshkent shahar boʻlim va boʻlinmalari hisob raqamlariga 1 mlrd. 34 mln. soʻm kelib tushdi. 8 mln. 981 ming kishi ishtirok etgan 16 avgust hasharida 27 mln. 158 ming metr kvadrat maydon obodonlashtirilib, yuqorida qayd qilingan hisob raqamlarimiz 642, 4 mln. soʻmga boyidi.

Koʻpniki koʻpga qaytadi. Toʻplangan mablagʻlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qoʻllab-quvvatlash, ommaviy sport turlarini rivojlantirish, mahallalar faoliyatiga oid turli ishlarga sarflanadiki, hech kim hasharga qoʻshgan ulushi va hissasidan norozi boʻlmaydi.

Choyxonalar. Hozir Respublikamizda birorta ham choyxonasiz mahalla topilmasa kerak. Oʻzbek choyxonalari qadimdan oʻziga xos maʼrifat-madaniyat, axborot markazi, mehmon kutish, koʻngilochar joyi boʻlib kelgan. Shoirlarimiz ularga atab sheʼrlar yozishgan. Xo-nandalarimiz qoʻshiqlar kuylashmoqsa. Hozir ham yurtimiz shaharlarida choyxonasiz birorta koʻcha yoʻq. Qishning sovugʻi-yu, yozning otashida choyxonaga kirib, bir piyola choy ichsangiz ham joningiz orom oladi.

Mustaqillik yillarida mahallalar ahli, homiylar tomonidan nechta choyxona qurilganining aniq hisobi yoʻq. Taxminlarga qaraganda ularning soni 10 000 dan oshib ketadi. Ularga kuniga 100 tadan odam kirganda ham 1,0 mln. kishi bir zum boʻlsa-da, hordiq oladi. Shoʻrolar tuzumi odamlar bu yerda osh yeb, ichkilikbozlik qiladilar, degan bahonada choyxonalarga ham «hujum» qildilar.

Choyxonalarda yoshlar, oʻrta yoshlilar tomonidan maʼlum darajada spirtli ichimliklar ichilishini hech kim inkor qilmaydi. Ammo ular ham odob doirasida boʻlib, choyxona qiyofasini belgilab bermaydi. Choyxonalarning asli mohiyatini tushunmagan muxoliflarimiz hozir ham shunday deb bilishadi. Bilishsa,

bilishaversin. Choyxonalar obodligi bundan buyon ham o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining diqqat markazida bo'lib qolaveradi.

O'zbekning bir piyola choyi, choyxonasi nimalarga tengligini faqatgina uni bilganlar tushunadi. Tushunmagan odam, nokas ekan, bir piyola choyga dedi-ya, deb ketaveradi.

An'ana va odatlar qotib qolgan hodisalar emas. Agar shunday bo'lsa, ular an'ana emas, aqida, ularga amal qilish aqidaparastlik bo'lib qoladi. An'ana va odatlar ham zamon taraqqiyoti bilan o'zgaradi, boyib boradi. Buni o'zbek choyxonalari misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, choyxonalar tarixi juda qadimiy bo'lib, O'zbekiston, xususan, qadimgi Xorazm tarixini o'rganishga ulkan hissa qo'shgan S.P. Tolstov kabi jahonga taniqli olim ularning paydo bo'lishini bundan necha ming yillar avvalgi erlar uyi bilan bog'lagan. Milliy an'anamizda ham choyxonlar erkaklar keladigan joy bo'lgani uchun hozir ham ularning ko'pini «Otalar choyxonasi» deb yuritamiz. Biroq bugungi kunda o'zbek choyxonalari xotin-qizlar uchun ham eng yaxshi jamoat joylaridan biriga aylanib bormoqda.

O'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi uning bolajonligi, oilaparvarligi, xotin-qizlarga ehtiromi, mehnatkashligi kabi fazilatlarida ham yaqqol namoyon bo'ladiki, ular alohida mavzulardir.

Milliy urf-odat va marosimlarning demokratik tamoyillarni shakllantirishga ta'siri masalasida hali muammo va vazifalar ko'p. Shulardan eng muhimi, bizningcha, ularning yoshlar tarbiyasi va milliy tafakkuri shakllanishiga ta'sirini ta'minlash vazifasidir. Bunda targ'ibot-tashviqot, zaruriy adabiyotlarning yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

To'g'ri, keyingi yillarda mahallalardagi va urf-odat hamda marosimlar haqida «Toshkent mahallalari: an'analar zamonaviylik», «Mahalla odobi», «Inson mahallada toblanadi», «Qaynonajon, qaynona», «Dunyoni mehr yashnatadi» kabi

turli mavzularda ko‘plab kitoblar va risolalar chop etildi. Biroq hozirda bular yetarli emas.

Kitob – bilim manbai ekanligi asrlar bo‘yi isbotlangan ekan, olimlarimiz, mutaxassislarimiz tomonidan bu sohada ham ko‘p ishlar qilinishi kerak.

1993 yilgi demografik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar aholining 43%ni tashkil etib, o‘rtacha yosh 24 ga to‘g‘ri kelgan. Bugungi kunda bu bolalarning eng yoshi 11 ga, eng kattasi 25 yoshga to‘lgan bo‘ladi. Endi aholining milliy urf-odat va marosimlar mohiyati, ahamiyatini qay darajada bilishiga e’tibor bersak, quyidagi holning guvohi bo‘lamiz.

Keksa avlod milliy an’analarimizni ancha yaxshi biladi. Sobiqtuzum davrida tug‘ilib, ulg‘ayganlar orasida esa sir emaski, o‘z vaqtida milliy marosimlarimiz, choyxonalar, Navro‘z kabi bayramimizga qarshi chiqqanlar ham talaygina bo‘lgan. Yosh avlod orasida asriy an’analarimizga, masalan, chaqaloqlarni beshikka belashga bid’at sifatida qaraydiganlari juda ko‘p. Umuman olganda, aholining ko‘pchiligi an’analar tarixi, mohiyati, o‘zbeklar turmush tarzidagi ahamiyatani kerakli darajada bilmaydi, deyish mumkin.

Hozirgi yoshlarimizning aqli juda tiyrak. Ular nazariy bilimlar va moddiy manfaatlarni juda tez o‘zlashtiradi. Biroq milliy va zamonaviy marosimlarimiz mohiyatini anglash uchun kishilar ma’lum bir tajribaga ega bo‘lishi, hayotda to‘y-aza deganlarni ko‘rishi kerak. Misol uchun, shu o‘rinda mustaqilligimiz qadrini o‘tgan asrning 80-yillarida tug‘ilganlardan ko‘ra, 20-50-yillarida tug‘ilgan avlod yaxshiroq his qiladi, desam xato bo‘lmas. Chunki 80-yillar avlodi yaqin tariximizdagi «o‘zbeklar ishi» fojealarini ham o‘z boshidan kechirmagan. Kechirmagani ham yaxshi. Biroq ular bu voqealarni faqat bilishlari emas, his qilishlari ham kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy va o‘rta ma-sus ta’lim vazirligi kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim rejalariga yeshlar ongiga milliy marosimlar va an’analarimizning tarixi, mohiyati, hozirgi davrimiz

uchun ahamiyatini singdirishga qaratilgan maxsus qisqa kurslarni joriy etsa, yaxshi bo‘lar edi.

Jamg‘arma va o‘zini o‘zi boshqarish organlari an‘anaviy urf-odatlar, marosimlarni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish borasida ham elga manzur ko‘p ishlar qilmoqda.

To‘g‘ri, an‘analar, marosimlar o‘tkazishning asriy qonun-qoidalari shakllangan. Bu borada unday qil, bunday qil, deb buyruq berib bo‘lmaydi. Ammo, milliy an‘analarimizni suiiste‘mol qilmaslik, davlatimiz siyosati va xalq ma‘naviy merosiga zarar yetkaz-maslik uchun Jamg‘arma boshqaruvi o‘zini o‘zi boshqarish organlari, aholining takliflarini o‘rganib, «Respublikada mavjud an‘anaviy udumlar, to‘ylar, dafn ma‘rakalari va boshqa milliy marosimlar va ularni zamon talablariga javob beradigan tarzda ixcham hamda tejamkorlik bilan o‘tkazishga qaratilgan tavsiyalar»ni ishlab chiqqan¹³. Ularda eng ko‘p o‘tkaziladigan 32 ta marosimlar bo‘yicha jo‘yali maslahatlar berilgan.

Yana bir taklif: Jamg‘arma qoshidagi Respublika «Mahalla ziyosi» o‘quv-uslubiy markazi mahallalar, jamoatchilik fikrlariga tayanib, an‘anaviy urf-odatlarimiz har birining tarixi va zamonaviylashtirish haqida uslubiy qo‘llanmalar yaratib, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga tarqatasa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.

Prezidentimiz aytganidek: «Respublika «Mahalla» jamg‘armasining yaxshi va go‘zal xalq bayramlarini, an‘analar va urf-odatlarni, madaniyatni qayta tik-lash, eng muhtoj oilalarga amaliy yordam berish, yoshlarni insonparvarlik va sahovat ruhida tarbiyalash sohasidagi faoliyati O‘zbekiston aholisi va jamoatchiligi tomonidan juda keng miqyosda qo‘llab-quvvatlanmoqda»¹⁴.

Faoliyat turlari qanchalik rang-barang, ijtimoiy munosabatlar qanchalik murakkab bo‘lmasin insoniyatning maqsadi - moddiy farovon, ma‘naviy boy yashashdan iboratdir.

¹³ Mahalla. Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarishning huquqiy asoslari. -T.: 2003, 318-330-betlar.

Chinakam insonparvar siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, xullas, jamiyatning barcha tarmoqlari ana shunga xizmat qiladi. Bu ikki asosiy maqsadga erishuvda ma'naviy qadriyatlarimiz, turmush tarzimizning tarkibiy qismi bo'lgan urf-odat, marosimlarimiz va ular bevosita voqe bo'ladigan mahallalar beqiyos ahamiyatga ega. Zotan, demokratik tamoyillar ham, asosan ana shu muhitda shakllanadi.

Biz ona yurtimiz, xalqimiz, milliy an'analarimiz bilan faxrlanamiz. Bu bilan jahondagi birorta xalqni kamsitmaymiz. O'zbeklar aytganidek, har elning o'z odati bor. Ayni paytda, shuni yaxshi bilamizki, bizning qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. Biz kimlardandir ezgu odatlarni o'rganganmiz va kimlardir bizning ezgu odatlarimizdan o'rgangan.

«Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»¹⁵.

Shu sababli milliy urf-odatlarimiz qadimdan, hozirgacha barcha ijod ahlini o'ziga jalb etib kelgan.

Jumladan, 2003 yil 29 avgust - 25 sentabr kunlari davomida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 12 yilligiga bag'ishlab mahallaning ezgu an'alari, urf-odatlari va o'ziga xos olamini aks ettiruvchi eng yaxshi tasviriy san'at asarlarining «Mahalladan bosh-lanar Vatan» mavzuidagi Respublika tanlovi hamda tanlovga taqdim etalgan asarlardan iborat badiiy ko'rgazma o'tkazildi. Tanlovda 500 dan ortiq ijodkorlar ishtirok etdi. Ko'rgazmada ijodkor A.Yunusov va F.Ahmadaliyev «Ayvondagi oila» hamda «Mahalladoshlar» asarlari uchun faxriy I o'rinni egalladilar. G'olib va sovrindorlarga tashkilotchilarning qimmatbaho

¹⁴ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. —T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 3-tom, 1996, 278-279-betlar.

¹⁵ I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. —T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2000, 8-tom, 503-bet.

sovg'alari va diplomlari topshirildi. Keyingi yillarda butun jahonda o'zbek mahallalari, xalqimizning an'analari va odatlariga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Shuning natijasi sifatida «O'zbek mahallasi: odamlar, an'analar va urf-odatlar» mavzusida 2003 yil 5 sentabr kuni Antverpenda Yevropa Kengashi axborot markazida ko'rgazma tashkillashtirildi. Ko'rgazmada respublikamizda faoliyat yuritayotgan foto ustalarning 60 dan ortiq ishlari namoyish etildi. Ushbu ko'rgazma 13-23 oktabr kunlari NATOning Bryusseldagi shtabkvartirasida, 12 dekabr kuni esa Yevroparlamentda ham o'tkazilib, ommaviy axborot vositalari ular haqida keng ma'lumotlar berdilar.

Bu o'rinda shuni aytish mumkinki, Olloh inson zotiga qancha fazilat ato etgan bo'lsa, ularni o'zbeklarga ham mo'l-ko'l qilib bergan va ularning barchasining zamirida insonga mehr yotadi.

Ajdodlarimiz milliy an'analar, udumlarimizni yaratib, asrlar bo'yi boyitib, bosqinchi-yu, tajovuzlardan asrab-avaylab bizgacha yetkazib keldi. Bu bebaho ma'naviy qadriyat qotib qolgan narsa emas, balki kundalik turmushimizda harakatdagi hodisadir. Biz katta bir xalqmiz. Elchilik bo'lgani uchun har kuni biror qishloq yoki mahallada, albatta, to'y-ma'raka bo'lib turadi.

Bizning burchimiz ajdodlar bizga yetkazib kelgan shunday qadriyatni yanada boyitib, kelgusi avlodlarga yetkazib berishdir. Hozirgi kunda esa undan milliy mafkuramizni yaratish, yosh avlodni barkamol tarbiyalashda samarali foydalanishimiz va dabdababozlik, turli noxolis talqinlardan himoya qilishimiz shart.

Bizningcha, qutlug' an'analarimizni niqob qilishning xavfi jamiyat uchun islom dinini niqob qilib, tinchligimizga taxdid solayotgan kuchlardan kam emas. Bu borada ham Yurtboshimiz quyidagi fikri bilan barchamizning dilimizdagi gapni aytdilar:

«Men ishonaman - xalqimizning sogʻlom tafakkuri, asriy tajribasi, koʻpni koʻrgan oqsoqollar, opa-singillarimizning, mahalla faollari, keng jamoatchilikning qatʼiyati bilan bu muammoni hal qilishga bizning kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi»¹⁶.

Aytilganlardan maqsad shuki, milliy udumlarimiz va anʼalarimiz qadimiyligi, boyligi, yashovchanligi, maʼnaviy yuksakligiga koʻra biz hech kimdan kam boʻlmaganmiz, boʻlmaymiz ham.

Oʻzbek xalqi etnografiyasi bilan shugʻullangan olimlar fikri va oʻz kuzatishlarimizcha, xalqimizning anʼanalari, urf-odatlari, oilaviy marosimlarini avloddan avlodga yetkazib kelishda, amal qilishda ham ayollarning oʻrni yetakchi ahamiyatga ega boʻlganligini koʻrsatadi¹⁷.

¹⁶ I.A.Karimov. Hayotimizning, tarakkiyotimizniig huquqiy asosi // Biz tanlagan yoʻl - demokratik taraqqiyot va maʼrifiy dunyo bilan hamkorlik yoʻli. -T.: «Oʻzbekiston» nashriyoti, 2003. 11-tom, 118-bet)

¹⁷ Bu mavzu filologiya fanlari doktori, folklorshunos A.Musaqulov bilan hamkorlikda yozildi.

X U L O S A

Shaxs ma'naviy tarbiyasida, eng avvalo oila hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Oiladagi hamma narsa, hatto eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylilik, sadoqatlilik va shirinsuxan bo'lish inson kamolotida muhim vositadir.

Oilada bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun avvalambor ularni sevishtirish, mehr ko'rsatish va hurmat qilish kerak. chunki bolalar ularni seva olgan, hurmat qila olganlarni qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l-yo'riqlarini, turli topshiriqlarini so'zsiz ado etadilar. Ota-onaning, oiladagi barcha kattalarning mehr-muhabbati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal axloqiy tuyg'ularni, ayniqsa, qadriyatni his qilishda yordam beradi.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida so'zi va ishi bilan shaxsiy namuna ko'rsatishi, uning hatti-harakatlaridan yaxshilik alomatlari sezilib turishi, haqiqat va samimiylikdan saboq berishi, har bir aytgan so'zdan ilqlik, mehr-muhabbat sezilib tursa qanday yaxshi. «qush uyasida ko'rganini qiladi», «Farzand – ota-ona axloqiy qiyofasining ko'zgusi» kabi naqlar bejiz aytilmagan. To'g'risi ham shu, yaxshi xulqli, ijobiy fazilatli ota-onalardan farzandlariga tabiiy ravishda eng qimmatli axloqiy xislatlar o'tib boradi.

Afsuski, bugungi kunda ayrim ota-onalar oilani moddiy ta'minlash bahonasi bilan farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik qilmoqdalar. Otalar pul topish maqsadida xorijga ishlagani ketib, uzoq vaqt qolib ketmoqdalar. Ba'zi ota-onalar tirikchilik bahonasi bilan voyaga yetmagan bolalarini bozorga chiqarib qo'ymoqdalar. Jamiyatda sodir bo'layotgan ko'pgina noxushliklar aynan tarbiyaga e'tiborning susayganidan kelib chiqayotganligini ko'rsatadi. Oiladagi notinchlik, kunora janjal, ichuvchi ota yoki onaning axloqsizligi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, huquqbuzarlik, ayrim hollarda esa jinoyat qilish ko'chasiga yetaklab kelmoqda.

O'zbek xalqi qadimdan o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy madaniy merosi bilan jahonni lol qoldirib kelgan. Uning o'ziga xos, takrorlanmas oilaviy an'analari borki, farzand tarbiyasida ulardan oqilona foydalanish har bir otanonaning kundalik ehtiyojiga aylanishi lozim.

Yoshlarning axloqan pok, jismonan sog'lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ular qalbida insonparvarlik, milliylik, odamiylik kabi xislatlarni shakllantirishda oila mustahkamligi va muqaddasligiga erishish bugungi kunning dolzarb mavzusi ekanligini unutmashlik zarur.

A.Navoiyning ushbu misralarini keltirib o'tishni joiz topdim.

Boshni fido ayla ato boshig'a,

Jismni qil sadqa ano qoshig'a.

Ikkisini aylag'ali nurposh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Bobokalonimiz yashab ijod qilgandan buyon jamiyatimiz bir nechta ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Shu bilan birga, xalqning ongi o'zgarib, fikrlash darajasi takomillashib bordi. Ong hayot bilan birga rivojlanib bordi. Mehnat taqsimoti vujudga keldi. «Oz va ko'p» tushunchalari paydo bo'ldi. Buning natijasida insonlarning mehnatga munosabati o'zgardi. YA'ni xalq yaxshi turmush tarzi asosida inson mehnati yotishini anglab yetdi. Endi shunday savol tug'iladi. Xo'sh, yosh avlodni tarbiyalash, uni vatanga, xalqiga, xalq urf-odatlariga, madaniyatiga, tarixiga, diniga sodiq bo'lishiga o'rgatib borish uchun, tarbiyani nimadan boshlash kerak? Mening nazarimda, tarbiyaning tayanch nuqtasi farzandning o'z ota-onasiga yaxshi munosabatidadir. Yosh avlodga ota va onaning ulug'ligi, martabalari oliy ekanligini ta'kidlab borish o'rinlidir. Qur'oni Karimda shunday deyilgan: «Allohga ibodat qilinglar va unga hech narsani sherik qilmanglar, hamda ota-onangizga yaxshilik qilinglar» (Niso surasi, 36-oyat). Afsuski, ba'zan turmush tarzimizda farzandlarning ota-onalarga bo'lgan ijobiy munosabatlari o'rnini salbiy munosabatlar egallaganini uchratib turamiz.

Xalqimizda, «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» degan naql bor. Bu bejizga aytilmagan. Chunki ko'pincha ziyoli odamlar o'z ota-onasiga noinsoniy

munosabatda bo'lishadi. Ularning g'animat ekanligini anglab yetishmaydi. Vaqtlarini qizg'anadilar. Hozirgi kecha-kunduzda ayrim fuqarolar ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish o'rniga, ularning tirikligida meros talashishadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari qonun bilan kafolatlangan moddalar bor. Jumladan, Oila kodeksining 66-moddasida: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishiga majburdirlar» deyilgan. Ota-ona farzandini katta mashaqqat bilan voyaga yetkazdi. O'zi yemasdan unga yedirdi, kiymay kiydirdi. Ammo oqibatini bilmaydi. Faqat qarigandagina o'z mehnati mahsuli mevasini tatib ko'radi. Agar o'sha meva shirin chiqsa, u qarilik gashtini suradi. Achchiq chiqsa, albatta, aziyat chekadi. Hatto inglizlarda ham shunday maqsad bor: «O'g'il uylanguncha farzand, qiz umrbod farzand!». Biz buni kundalik turmushimizda ko'plab uchratamiz. Ayrim kishilar ishda xushfe'l, xushmuomala, g'amxo'r bo'lib ko'rinishadi. Ammo uyga kelgach, to'nning teskarisini kiyishadi, qo'pol va injiq bo'lishadi. Bu hislatlar darhol uning ota va onasiga munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ota-onasidan turmush o'rtog'ini ustun qo'yish, ularni odamlar oldida ochiqdan-ochiq yomonlash, uy ishlarida yordam bermaslik, ota-ona qarib yordamga muhtoj bo'lib turganida ularning ruxsatisiz boshqa yoqqa ko'chib ketish va hokazo.

Ota-onaga qo'pollik qilish, ularga tik boqish va xo'mrayish, nasihat qilishganda norozilik belgisi sifatida «uf» tortish va boshqa salbiy illatlar sira kechirilmaydigan holatlar hisoblanadi.

Otaga tik qarash, uning gapiga quloq solmaslik qadimdan qoralanib kelingan. Ota duosini olmagan yigit-qiz hech qachon baxtli hayot kechirolmaydi.

Demak, farzandning kelajakda ota-onasi bilan salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishiga ota-onaning ahamiyati beqiyos. Oilada vertikal munosabatlarning koidadalari: xurmat kursatish, pand-nasixatga kulok solish, maslaxatlashib ish kurish, suroklash va surab turish, e'tiborli bulish, xizmat kilish, farzandlik burchini ado etish.

Gorizonttal munosabat qoidalariga esa: yakin kondoshligini unutmaslik, bir-birini kullab-kuvvatlash, bir-biriga to‘g‘ri yul ko‘rsatish, aka-uka, opa-singillar urtasidagi statusni saklash.

Bundan tashqarish shaxs ma’naviy tarbiyasida vertikal munosabatlardagi muammolar quyidagilarda kurinadi:

- Ota-ona tomonidan farzandlarga yunaltirilgan tarbiyaning uzluksizligini ta’minlanmaganligi;
- Ota-onalar tomonidan farzandlarga zuravonlik xolatlarining uchrashi;
- Oilada ijtimoiy, iktisodiy nochor axvol natijasida farzandlarda deviatsiya xolatining vujudga kelishi (turli okimlar, jinoyatlar);
- Vertikal munosabatlarning keskinlashuvi va uning muxim kurinishlari (ota-onalarning farzandini ok kilishi, uz oilasidan maxrum kilish).

Shaxs ma’naviy tarbiyasida gorizonttal munosabatlardagi muammolar esa:

- Oiladagi aka-uka, opa-singillar urtasidagi uzaro yoshi urtasidagi tafovutlar;
- Oiladagi aka-uka, opa-singillar urtasidagi ma’naviy, ruxiy va kasbiy farklar;
- Oiladagi farzandlar urtasidagi meros talashishlar;
- Yakin tengdoshlar va karindoshlar urtasidagi uzaro ichki nizolarning kelib chikishi (ammakivachchalar, karindoshlar urtasidagi kuda-andachilik va x.k.)

Bugungi kunda shaxs ma’naviy tarbiyasiga vertikal va gorizonttal munosabatlarga OAV larining ta’sirini ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, turli kinoseriallar va kinofilmlaridagi ota-onaga xurmat va xurmatsizlik farzand tarbiyasiga ta’siri; didektiv, vaxshiylikni targib kiluvchi kinofilmlarda inson ongiga tugridan-tugri yovuz maksadlar ta’sir kursatib oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir kursatadi; ma’naviy, ma’rifiy, axlokiy kursatuvlar orkali oilada ota-onaga, aka-ukaga, opa-singillarga pozitiv munosabat shakllanadi.

Shaxs ma’naviy tarbiyasida vertikal va gorizonttal munosabatlarni shakllantirishda kadriyat va urf-odatlarining roli katta. Bunda, ota-onaga xurmatni urgatadi; turli bayram va marosimlarga jumladan, Navruz, xalk sayllariga ishtirok

etish, tarbiyasiga pozitiv ta'sir etadi; xalk xasharlariga ishtirok etib vatanparvarlik, saxiylik, insoniylik kabi fazilatlar shakllanadi; diniy e'tikodi orkali oilaviy munosabatlarga, masalan, ota-onaga, aka-ukaga, opa-singillarga bulgan munosabati uzgaradi.

Shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlarni buzuvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjud. **Obyektiv omillar:** oiladagi bekaror muxit; oiladagi iktisodiy nochorlik; maxalladagi bekaror muxit (ugrilar kup yashaydigan maxalla, jinoyatchilar, foxishalar kup istikomat kiladigan maxalla). **Subyektiv omillar:** farzandsizlik; surunkali bemorlik xolatlari; egoistik tuyguning kup namoyish bulishi; savodsizlik; beparvolik; stigma xolatlari (nuksonlar, pes bulishi, nogiron bulishi va x.k.).

Shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlarni ijobiylashtirish uchun kuyidagi **tavsiyalarni** aytishni lozim topdim.

- Shaxs ma'naviy tarbiyasidagi vertikal va gorizontal munosabatlarni pedagogik, psixologik, huquqiy, sotsiologik nuqtai nazardan kengroqo'rganish va tadqiq etish lozim;
- Shaxs ma'naviy tarbiyasidagi munosabatlarni shakllantirishda qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlarning rolinishi oshirish lozim;
- Oiladagi munosabatlarda ota-onaning rolini oshirish orqali o'zaro vertikal munosabatlarning barqarorligini saqlash lozim;
- Shaxs ma'naviy tarbiyasida vertikal va gorizontal munosabatlarni shakllantirishda vorisiylikni ta'minlash lozim;

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
- 2.** Karimov I.A O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent: O‘zbekiston, 1996, 1-tom
- 3.** Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O‘zbekiston, 1996 y. 2-tom.
- 4.** Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O‘zbekiston, 1996 y.,3-tom.
- 5.** Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. Toshkent: O‘zbekiston, 1996,4-tom.
- 6.** Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatilari.Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
- 7.** Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash –davr talabi. Toshkent: O‘zbekiston, 1996,5-tom.
- 8.** Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida Toshkent: O‘zbekiston, 1998, 6-tom
- 9.** Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
- 10.** Karimov I.A Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent: O‘zbekiston. 1994.
- 11.** Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. Toshkent: O‘zbekiston. 1998.
- 12.** Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent: O‘zbekiston. “Sharq” 1999.
- 13.** Levitin L, Donald S. Karlayl. Islom Karimov – yangi O‘zbekiston Prezidenti. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
- 14.** Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent : 1997.
- 15.** Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq” 1999
- 16.** Fevral voqalari. 1999 yil 16 ferval , Toshkent O‘zbekiston, 1999
- 17.** Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 1992

- 18.** Ibromimov A, Sultonov X, Jo'rayev N . Vatan tuyg'usi. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
- 19.** Tulenov K,G'ofurov E. Falsafa. O'qituvchi, 1997
- 20.** Tulenov K.. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent : 1998
- 21.** Tulenov K. Hayot falsafasi. Toshkent: 1993.
- 22.** Ubaydullayev M.M O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent: Fan, 1994.
- 23.** Sulaymonova F. Sharq va g'rab . Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- 24.** Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent: Sharq, 1998.
- 25.** Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent: O'zbekiston. 1997.
- 26.** Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
- 27.** Safo Ochil. Mustaqillik ma'anviyat va tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
- 28.** Imomnazrov N. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent: Sharq, 1996.
- 29.** Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
- 30.** Yo'ldoshev Q., Muftaydinov Q. Iqtisodiy bilim asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1997
- 31.** Erkayev B.A Karimov G.I Bozor iqtisodiyoti. Toshkent: Sharq, 1997.
- 32.** O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. Toshkent: O'qituvchi. 1996.
- 33.** O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. Toshkent: O'zbekiston, 1993.
- 34.** Usmon Turon, Turkiy xalqlar mafkurasi. Toshkent: Cho'lpon, 1995.
- 35.** Odilqoriyev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. Toshkent: O'zbekiston, 1995.
- 36.** O'zbekiston siyosiy va huquqiy islohatlar sari. Toshkent: Universitet, 1996.
- 37.** Shermuhamedov S. Mustaqillik buyuk ne'mat. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- 38.** Hoshimov Q., Nishonova S., Inomova M, Hasanov R. Pedagogika tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 1996.

39. Millayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob Toshkent: O'qituvchi, 1976.
40. Qur'oni Karim. Toshkent: Cho'lpon, 1992.
41. Uvatov U. Muhaddislar imomi. Toshkent:Ma'naviyat va marifat markazi, 1998.
42. Buyuk muhaddislar. Toshkent: Ma'naviya va ma'rifat markazi, 1998.
43. Imom al-Buxoriy. Xadis, Toshkent: 1992
44. Hazrati payg'ambarning hayoti. Toshkent: Kamalak, 1996.
45. At-Termiziy, Hadislar. Toshkent: Sharq yulduzi, 1990. 9-son
46. Abu iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Toshkent: G'.G'ulom nomidgi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
47. Dinshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 1995.
48. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. Toshkent: 1995.
49. Muminov I.M Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini va roli. Toshkent: Fan, 1993.
50. Temur tuzuklari. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
51. Amir Temur va temuriylar darida madaniyat va san'at Toshkent: g'.g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
52. Hakimov N, Jo'raqulov O. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Toshkent: Fan, 1998.
53. O'zbek pedagogikasi tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
54. Komil ma'anaviyat-mustaqillik tayanch. Toshkent: O'zR OvaO'MTV, 1997.
55. Inson huquqlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
56. Axloq-odobga oid hadislar. Toshkent: Fan 1990.
57. Shoumarov G'.B. Shoumarov SH.B. Muhabbat va oila. Toshkent: 1994.
58. Usmonov M. Donishmandlar odob-ahloq haqida. Toshkent: Fan. 1996.
59. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent: «Sharq», 1999.
60. Islom: bag'ri kenlik va mutassiblik. Toshkent:ToshdU, 1998.
61. Karimova O, G'affarov E. Dalvlat va huquq asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.

62. Davlat va huquq asoslari. Izohli lugʻat. Toshkent: Oʻqituvchi, 1996.
63. Oltin meros. Xalq soʻzi, 1996 yil 23 aprel.
64. Toʻxtayev H. Madaniy meros vorisligi. Fan va turmush, 1997, № 1,8-9-betlar.
65. Erkayev A. Mustaqillik va madniy meros. Muloqot, 1996, №17-b.
66. Qadriyatlar nima degani. Guliston, 1995.№ 2,49-bet.
67. Ensiklopedik lugʻat. Toshkent: 1990,423-bet.
68. Odilov Q... Nazarov M., Iqtisodiy madaniyat haqida, Iqtisod va hisobot, 1997 № 9,70-72-betlar.
69. Nizom F.Madaniyat va iqtisodiyot hamkorlikning qoʻsh qanoti. Halq soʻzi, 1996 yil 30 aprel.
70. Rahmonqulov H. Huquqiy ong taraqqiyot garovi. Muloqat. 1997, №4.
71. Ergashev I. Istiqlol mafkurasi- taraqqiyot omili. Muloqot 1997 № 2,4-bet.
72. Odilov Q. Ijtimoiy tarbiya va milliy ong. Halq taʼlimi, 1997, №5.
73. Toʻlaganov F. Umuminsoniy va milliy manfaatlar. Fan va turmush. 1996 № 1,3-5 betlar.
74. Oʻzbek Sovet Ensiklopediyasi. Toshkent, 1978, II tom. 447-bet.
75. Xoʻjamuradov I. «Avesto»da maʼnaviyat muammolari. Muloqot. 1996, № 1,59-61-betlar.
76. Yoʻldoshev Q. Shaxs-jamiyat va maʼnaviyat birligi. Muloqot 1996, № 5,18-20
77. Ahmedov A.Ahmad Fargʻoniy Muloqot. 1996, № 6-,49-51-betlar.
78. Mansur Otin oʻgʻli Amir Temurning maʼnaviy salohiyati. Muloqot 1996, № 4,20-21-betlar.
79. Mahmudov gʻ. Jadidchilik va milliy istiqlool. Muloqot 1996 № 1,44-bet.
80. Said Murod. Inson maʼnaviyat, barkamollik. Fan va turmush. O . Millatga xos anʼanalar. Iqtisod va hisobot. 1997 № 9.

Internet saytlari.

1. www.bilim.uz
2. www.gov.uz –Xukumat sayti
3. www.press-servise.uz – Prezident sayti

4. www.edu.uz– Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz – Vazirlik sayti